

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

ROMAN-GERMAN FILOLOGIYASI FAKULTETI
FRANSUZ TILI FONETIKASI VA GRAMMATIKASI KAFEDRASI

DOLIEVA LAYLO
FRANSUZ FRAZELOGIYASIDA “*HOLAT*”
KATEGORIYASI

MAGISTRLIK DISSERTATSIYASI

***Ilmiy rahbar :* f.f.n. Suvonova N.**



Sq,qraqnd-2014

M U N D A R I J A

KIRISH.....	3
I BOB. TILSHUNOSLIKDA “<i>HOLAT</i>” KATEGORIYASINING	
MANTIQUIY VA LISONIY TAVSIFI.....	7
1.1. “ <i>Kategoriya</i> ” tushunchasining mantiq va tildagi aksi.....	7
1.2. “ <i>Holat</i> ” tushunchasining lisoniy talqini.....	10
1.3. “ <i>Holat</i> ” kategoriyasini ifodalovchi atamalar tilshunoslar talqinida.....	17
I bobga xulosa	19
II BOB. FRANSUZ FRAZELOGIYASIDA “<i>HOLAT</i>”	
KATEGORIYASINING IFODA SHAKLLARI.....	21
2.1. Fransuz tilida “ <i>holat</i> ” kategoriyasining ifoda vositalari	21
2.2. FBlar “ <i>holat</i> ” kategoriyasini ifodalovchi asosiy vosita sifatida	25
2.3. Ravishli FBlarda “ <i>holat</i> ” kategoriyasi.....	35
2.4. Fe’lli FBlarda “ <i>holat</i> ” kategoriyasi.....	40
II bobga xulosa	42
III BOB. HOLATNI IFODALOVCHI FBLARNING STRUKTUR-GRAMMATIK XUSUSIYATLARI.....	45
3.1. “ <i>Holat</i> ” kategoriyasining sintaktik tavsifi.....	45
3.2. Predlog - “ <i>holat</i> ” kategoriyasining tarkibiy qismi sifatida.....	47
3.3. “ <i>Holat</i> ” kategoriyasining badiiy asarlarda ifodalanish usullari	51
3.4. “ <i>Holat</i> ” kategoriyasining struktur modellari	56
III bobga xulosa.....	59
XULOSA	61
Foydalanilgan adabiyotlar ruyxati	65
ILOVA. Holatni ifodalovchi til birliklari ro’yxati	71

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Keyingi vaqtda tilshunoslik uchun (umumiy, qiyosiy – tipologik, roman, german, slavyan, turkiy va boshqalar) matn va lug’at lingvistikasining tezkor rivojlanishi xos bo’lib, buning natijasida «matnning ichki lingvistik tipologiyasi» tilning sistem – sathiy tahlili kabi nazariy yo’nalish rivojlanish bilan bir qatorda yanada samaraliroq o’rganilmoqda.

Hozirgi kunda O’zbekistonda ishlab chiqilayotgan pedagogik – filologik fanlar turkumi oldida yangi didaktika, lug’atshunoslik, matn nazariyasi, va tarjimashunoslik asoslarini ishlab chiqishni jadallashtirish kabi masalalar dolzarb bo’lib turmoqda. O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining To’qqizinchi sessiyasida O’zbekiston Respublikasining Prezidenti I.A. Karimov shu masalaga bog’liq quyidagi o’ta muhim muammoni tilga oldi: «Mamlakatimizda xorijiy tillarni o’rganishning milliy asosdagi jadallashtirilgan metodikasini tayyorlashni tezlashtirishimiz kerak»¹. Bu kabi yirik muammoni har tomonlama hal qilish uchun filologiya va pedagogika fanlarining ko’plab sohalarida tadqiqotchilik faoliyatini jadallashtirish zarur. Bunda umumiy, qiyosiy – tarixiy, tipologik, qiyosiy va amaliy tilshunoslikda bilimning ilmiy hamda ijtimoiy ahamiyatli sohasining holati uchun ma’sul bo’lgan lug’atshunoslik, matnshunoslik, til o’qitish metodikasi va boshqalarga alohida e’tibor qaratiladi.

Shunga asosan, biz ham o’z Magistrlik dissertatsiyamizga tildagi grammatik masalalardan biri sanalgan holat kategoriyasini aynan xorijiy tillardan biri bo’lmish fransuz tili frazeologiyasi misolida tadqiq etishga harakat qilganimiz ham bejiz emas, albatta. Binobarin, tildagi frazeologik muammolar qatorida undagi holat kategoriyasiga doir tadqiqotlarning mavjud emasligi ishimizning yanada yangiligi va dolzarbligidan dalolatdir. Tildagi mavjud so’zlar va ularning o’ziga xos xususiyatlarini tadqiq etishda holat kategoriyasini ifodalovchi so’zlar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Binobarin, tilda so’z

¹ Каримов И. А. Баркамол авлод – Ўзбекистон тараққиётнинг пойдевори. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлис IX сессиясида сўзлаган нутқ // Тошкент. М. туп. Т6. 1998. ¹ – 312 б.

birikmalari va gaplar tarkibidagi elementlarning semantik, grammatik va funksional xususiyatlari til va nutq faoliyatini tavsiflashda katta ahamiyatga egadir. Yuqorida zikr etilgan masalalardan tadqiqotning dolzarbligi yaqqol ko'zga tashlanadi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Tilshunoslikda holat kategoriyasiga doir muammolar avvalambor, V.V.Vinogradov, L.V.Sherbalar tomonidan keng tarzda tadqiq qilingan.¹ Shuningdek, fransuz tilida holat kategoriyasi borasida so'nggi vaqtlarda bir qancha ilmiy tadqiqot ishlari ham ko'zga tashlanmoqda. Biroq bizning Magistrlik dissertatsiyamizdan asosiy maqsad esa, yuqoridagi tadqiqotlarda keltirilgan ilmiy xulosa va kuzatishlarni kompleks tarzda umumlashtirgan holda ma'lum bir tizim asosida barcha uchun tushunarli tarzda sodda misollar bilan holat kategoriyasini yoritishdan va shuningdek, ushbu lingvistik kategoriyani aynan fransuz frazeologiyasi doirasida tavsiflashdan iboratdir.

Tadqiqotning maqsadi. Ushbu Magistrlik dissertatsiyasining oldiga qo'yilgan asosiy maqsad fransuz tili frazeologiyasidagi holat kategoriyasini tavsiflash va uning o'ziga xos ko'rinishlarini tadqiq etishdan iboratdir.

Tadqiqot vazifalari. Tadqiqot oldiga qo'yilgan masalalarni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalarni bajarishga e'tibor qaratiladi:

- tilshunoslikda holat kategoriyasini ifodalovchi so'zlarning leksik va grammatik mohiyatini tavsiflash;
- holatni ifodalovchi so'zlarning boshqa so'z turkumlariga oid so'zlar tarkibida tutgan o'rnini aniqlash;
- fransuz tilida holat kategoriyasini ifodalovchi vositalarning shakllarini namoyon etish;

¹ Виноградов В.В. Основные понятия русской фразеологии как лингвистической дисциплины // Избр. труды, т. 3. –Лексикология и лексикография. – М., 1977. –С. 64.; Щерба Л.В. Языковая система и речевая деятельность. –Л., 1974.

- fransuzcha frazeologik birliklar, ravish soʻz turkumiga oid soʻzlar holat kategoriyasini ifodalovchi eng asosi manba ekanligini isbotlash;

-fransuz tilida holatni ifodalovchi frazeologik birliklarning struktur tuzilishini namoyon etish;

- Ravishli frazeologik birliklarning holatng ifodalash xususiyatlarini namoyon etish

- Feʼlli frazeologik birliklarning holatng ifodalash xususiyatlarini namoyon etish;

- Holat kategoriyasini ifodalovchi frazeologik birliklarning semantik turlarini aks ettirish.

- Holatni ifodalovchi frazeologik birliklarning badiiy matnlarda qoʻllanilish xususiyatlarini tahlil qilish;

- Fransuzcha holat kategoriyasi asosidagi frazeologik birliklarning maxsus struktur modellarini ishlab chiqish.

Tadqiqot obyekti va predmeti. Tilshunoslikning eng serqirra jabhalaridan biri hisoblangan fransuz frazeologiyasi tadqiqot obyekti tashkil etsa, undagi aynan holat kategoriyasini ifodalovchi frazeologik birliklar esa tadqiqot predmetini tashkil etadi.

Tadqiqotning metodologik va nazariy asoslari. Tilshunoslikning grammatika, leksikologiya, frazeologiya va sintaktika borasidagi nazariy yoʻnalishlar hamda V.V.Vinogradov, L.V.Sherba, V.G. Gak, A.G. Nazaryan, L.Tener, M. Arrivé, M. Galmiche, M. Grevisse, L. Iliya, Sh.Safarov, A.M.Bushuy, A.Mamatov, J.Yoqubov singari tilshunoslarning nazariy qarashlari tadqiqotning metodologik va nazariy asoslarini tashkil etadi.

Tadqiqot metodlari. Tadqiqot oldiga qoʻyilgan vazifalarni amalga oshirish maqsadida ishda tasviriy, struktur va distributiv tahlil qilish metodlaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Tilshunoslikda holat kategoriyasini ifodalovchi til birliklarini maʼlum bir tizim asosida kompleks tarzda tavsiflashga maʼlum darajada hissa qoʻshildi.

Tadqiqotning nazariy ahamiyati. Holatni ifodalovchi soʻz va frazeologik birliklarning oʻziga xos xilma – xilligi namoyon etildi. Shuningdek, tilshunoslarning bu boradagi qarashlari maʼlum darajada umumlashtirildi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati. Magistrlik dissertatsiyasidagi tahlil natijalari asosida maxsus kurs sifatidagi frazeologiya kursi, nazariy, amaliy va qiyosiy grammatika fanlarini oʻqitishda, qoʻlaversa, chet tillarini oʻqitish va oʻrganish jarayonlarida ham foydalanish mumkin. Bundan tashqari, darsning mazmunli va qiziqarli oʻtish uchun ham ancha samaralidir va fransuz tilida maʼruzalar matnini va maʼruzalar oʻqitish jarayonida ham foydalanish mumkin.

Magistrlik dissertasiyasining tuzilishi qoʻyilgan vazifalarning ketma – ket izchilligiga asoslanib, u kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan ilmiy adabiyotlar roʻyxati va ilovadan iborat.

I BOB

TILSHUNOSLIKDA “*HOLAT*” KATEGORIYASINING
MANTIQUIY VA LISONIY TAVSIFI1.1. “*Kategoriya*” tushunchasining mantiq va tildagi aksi

Tilshunoslikda *kategoriya* tushunchasining paydo bo'lishi va ushbu atamaning semantik qo'llanilish doirasini yaxshi tushunib olish maqsadida *kategoriya* atamasiga nisbatan berilgan ta'riflarni turli xil qomusiy va izohli lug'atlarga murojaat etgan holda tahlil qilish maqsadga muvofiqdir. Xususan, “Falsafiy qomusiy lug'at”da ushbu atamaga qo'yidagicha izoh beriladi : *Kategoriya* (yunon. *Kategoria* –*belgi, izohlash*) - falsafiy tushuncha bo'lib, falsafiy tafakkur uchun nihoyatda muhim, olamdagi o'zgarish, rivojlanish, aloqadorlik va uzviy bog'liqlikka xos umumiy jihatlarning in'ikosi, narsa va hodisalarning o'ziga xosligi, o'xshashligi va farqlanishi, barqarorligi va o'zgarishini anglatuvchi, bilishning asosini tashkil etuvchi eng umumiy tushunchalar. Malumki, har bir fan ikkinchi bir fandan o'zining tadqiqot obyektiining xususiyatiga, unda ishlatilayotgan tizimning o'ziga xosligiga qarab farqlanadi¹.

O'zbek tilining izohli lug'atida esa bu atamaga shunday ta'rif beriladi: *Kategoriya* (yunoncha *katechresis*- suistemol qilish , noto'g'ri qo'llash) 1) Qarama –qarshi tushunchalarni bog'lash, so'zni o'z asl ma'nosiga muvofiq bo'lmagan holda qo'llash. Masalan, *qizil siyoh* (*siyoh* so'zi aslida “*qora*” ma'nosini anglatadi). 2) Ilmiy terminologiyada: predmet turlarini yoki ularning umumiy belgilarini bildiruvchi tushuncha. Grammatik kategoriyalar. Ot kategoriyasi².

Ushbu atamaning fransuz tili izohli lug'ati - *Le petit Robert* lug'atidagi ta'rifiga ham e'tibor qaratdik. Bu atama ushbu manbada quyidagicha izohlanadi: *Catégorie* -1) *PHILOS. Qualité que l'on peut attribuer à un sujet. Les dix catégories d'Aristote: substance, quantité, qualité, relation, lieu, temps, situation,*

¹Фалсафа: қомусий луғат, Т., -2004

² Ўзбек тилининг изоҳли луғоти 2 жилд Давлат илмий нашриёти, 2006.

avoir, ajir, pâtre (subir).-SPECIALT Chez Kant, Concept fundamental de l'entendement. Les quatre grandes classes de categories: modalité, qualité, quantité, relation. 2) LING. Classe a l'intérieur de laquelle sont placés, selon des critères sémantiques ou grammaticaux, les éléments d'un vocabulaire . Catégories logiques, grammaticales.(verbe, nom; genre; nombre)¹.

Ushbu atamaning tegishli manbalardagi ta'rifini kuzatish davomida uning ikki xil semantik maydonga ega ekanligi namoyon bo'ldi, ya'ni *kategoriya* ham falsafiy, ham lingvistik tushunchadir.

Shuningdek, Kategoriya (falsafiy) voqelikdagi hodisa va bilishning muhim hamda umumiy xususiyatlarini aks ettiruvchi eng umumiy va asosiy tushunchalar. Kategoriyalar bilish va ijtimoiy amaliyot tarixiy amaliyotining umumlashgan natijasi bo'lib vujudga kelgan.

Kategoriyalar haqida ilk ta'limot qadimgi Hindistonning ayrim falsafiy maktablarida uchraydi. Yunon faylasufi Platon dunyodagi narsa va hodisalar tushunchalarning ifodasi shaklida hosil bo'ladi deb hisoblaydi². Ya'ni, biror bir mavzuni tavsifiga ko'ra sifatlash tushuniladi. Kant esa idrokning bosh g'oyasi deb, konsept, makon va zamonni ko'rsatadi va kategoriyalarni 4 ta katta turini ko'rsatadi. Bular: modallik, miqdor, munosabat va sifat. 2) LING. So'zlarning Grammatik va semantik jihatdan klassifikatsiya qilinishi (fe'l, ot, rod, son).

Arestotel "*Kategoriya* "deb nomlangan asarida tushunchalar, ularning turlari, asosiy, umumiy, ilmiy tushuncha - kategoriyalar, tilda turli xil kategoriyalarning rivojlanishiga va ularning semantik xususiyatlarini ochib berishga katta e'tibor bergan.

Arestotel kategoriya mohiyati haqida shunday deydi: "*Bu eng oliy mantiqiy tushunchalar bo'lib, obyektiv borliqning asosiy, muhim xususiyatlari kategoriyada aks etadi va ular asosida boshqa tushunchalar hosil bo'ladi. Ular moddiy dunyo (obyektiv borliq) bilan bog'langanligi uchun kategoriyalar tabiat narsalari*

¹ Le Petit Robert, P., 2000 ,p 359

² "Ўзбекистон миллий энциклопедияси ", Давлат илмий нашриёти, Т., 502 б

*orasidagi bog'lanish va ularning munosabatini ifodalab gaplarning asl mohiyatini anglatadi*¹.

Arestotel alohida predmetlarni (ularning asosida predikatlar borligi uchun) kategoriyalar deb qaraydi. Shu ma'noda Aristotel u yoki bu alohida olingan predikatlarga nisbatan tushunchalarni kategoriyalar deb ataydi. Bunday kategoriyalarni 10 ta deb belgilaydi. Ular quyidagilar: 1) mohiyat, 2) miqdor, 3) sifat, 4) munosabat, 5) o'rin, 6) vaqt, 7) holat, 8) egalik, 9) harakat, 10) majhullik kategoriyalaridir.

Aristotel o'z kategoriyalarini ilmiy tahlil qilib, keyinchalik *“Metofizika”* kitobida ularning sonini uchtaga qisqartiradi:

- 1) *“Mohiyat” kategoriyasi;*
- 2) *“Holat” kategoriyasi;*
- 3) *“Munosabat” kategoriyasi.*

Bundan shu narsa ma'lum bo'ladiki, Aristotel kategoriyalarni asosan uch semantik guruhga bo'ladi. Tabiiy savol tug'iladi. Aristotel qolgan yettita kategoriyani tashlab yubordimi yoki ulardan voz kechdimi? Javob ijobiydir. Aristotel uchta kategoriyani asosiy tur deb olib, qolgan yettita kategoriyani shu turning yordamchi turlari deb qaragan. Aristotelning bu ilmiy falsafiy mantiqiy qarashi to'g'rimikin?

Bizning nazarimizda, semantik va mantiqiy jihatdan olib qaraganda, Aristotelning kategoriyani o'nta turga bo'lib yuborishi maqsadga muvofiq emas. Gap shundaki, yuqorida berilgan kategoriyalarning har biri mustaqil ma'noga ega bo'lib, mantiqiy predikatlarni talab qiladi va modallik nuqtai nazaridan har bir kategoriya o'z mazmun va ifodasiga ega bo'ladi.

Aristotelning xizmati shundaki, kategoriya turini aniqlash va ularni aniq bir sistemaga solib, bir til misolida tushuntirib izohlab berish, bizning nazarimizda, o'sha davr uchun olamshumul ahamiyatga ega edi. Eng muhimi, Aristotelning kategoriyalari asosida keyinchalik falsafiy, mantiqiy, lingvistik, semantik,

¹ Арестотель. Аналитики. Первая и вторая. Госполитиздат. –М., 1952

modallik kabi kategoriyalar hosil bo'ladi. Bu tushunchalar mantiqda semantik operatorlar orqali, tilda esa morfalogik va sintaktik usullar bilan ifodalanmoqda.

Arestotelning kategoriya haqidagi ta'limoti Kindiy, Farobiy, Ibn Sino tomonidan rivojlantirilgan. O'rta asr sxolastikasida 6 ta kategoriya bir –biridan farq qiladi: borliq (mohiyat), sifat, miqdor, harakat, munosabat, egalik. Dekart va Lokk 3 ta kategoriyanı ko'rsatib o'tadi: substansiya, holat (modus) va munosabat.

Har qaysi fanning o'z kategoriyalari bo'lib, ular shu fanning xususiyatlarini ko'rsatib berish uchun xizmat qiladi¹. Shunday ekan, tilshunoslikdagi *kategoriya* tushunchasi ham ushbu fan doirasida qo'llanganda tilga xos bir qancha lingvistik kategoriyalarnı ifoda etadi. Xususan, tildagi modallik, nominativlik, kommunikativlik kabi kategoriyalar shular jumlasidandir. Ushbu tadqiqot obyekti hisoblangan frazeologiya fani doirasida ham *kategoriya* tushunchasi keng qamrovli bo'lib, u frazeologik birliklar semantiksiga xos harakat va holat, makon va zamon singari ma'no ottenkalarini o'zida mujassamlashtira oladi.

Ushbu bo'limga xulosa o'rnida shuni ta'kidlash lozimki, *kategoriya* tushunchasi turli xil manbalarda turlicha tavsifga ega. Biroq uning turlari xususida to'xtaladigan bo'lsak, ular orasida holat kategoriyasi doimo o'z o'rniga ega.

1.2. “Holat” tushunchasining lisoniy talqini

Holatni ifodalovchi so'zlar va ularning so'z turkumlari orasidagi talqini o'ziga xos xususiyatlari bilan boshqa turkumdagi so'zlardan ajralib turadi. Ma'lumki, so'z turkumlari muammosi tilshunoslar tomonidan minglab yillar davomida o'rganib kelinayotgan bo'lsada, ularning tasnifi borasida hamon aniq bir to'xtamga kelinmagan. Bunday deyishimizga sabab leksemalarning ma'lum bir sinfini aniqlashda subyektiv usullar bilan bo'lsa-da, biz turlicha tasniflarga duch kelishimiz mumkin.

So'zlar eng avvalo, anglatgan tushunchalariga ko'ra ma'lum turkumlarga bo'linadi. Tildagi so'zlar bir-biridan nafaqat anglatgan konkret ma'nolari bilan,

¹ Ўзбек тили изоҳли луғати, Давлат илмий нашриёти, Т., 2006, 332 б.

balki grammatik xususiyatlari bilan ham farqlanadi. Umumiy semantik va grammatik xususiyatlari bilan ajralib turadigan so'zlarning eng katta guruhlarini *so'z turkumlari* deyiladi.

Tilshunoslar so'zlarni turkumlarga ajratuvchi mezonlar, belgilar to'g'risida turli qarashlarni bayon etganlar. Grammatikachilar orasida quyidagi savollar o'zaro tortishuvlarga sabab bo'lmoqda:

- a) so'zlarni turkumlarga ajratish kerakmi yoki kerak emasmi?
- b) so'z turkumlarining soni nechta?
- v) so'z turkumlarining qaysilari asosiy (mustaqil) va qaysilari tobe (yordamchi)?
- g) so'zlarni turkumlarga ajratishda qaysi tamoyillarga tayanish kerak?

Bunday savollarning tug'ilishida ham ma'lum bir sabablar mavjuddir. Bular quyidagilar:

- a) muayyan so'z turkumlariga kiritish qiyin bo'lgan so'zlarning mavjudligi, masalan, sifat-dosh bir vaqtning o'zida ham fe'llik ham sifatlik xususiyatlarini o'zida mujassamlashtirishi;
- b) so'zlarning bir turkumdan ikkinchi turkumga doimiy o'tib turishi;
- s) ayrim konstruksiya va iboralarda so'zlarning turkumiy belgilari qat'iy bo'lmasligi;

So'z turkumlari tasnifi uchta tamoyilga asoslanadi: ma'no, shakl va vazifa. Ma'no deganda biz har bir so'zning alohida ma'nosini emas, balki butun bir sinfga tegishli so'zlarning ma'nosini tushunamiz. Masalan, substansiallik(ot)ning ma'nosi narsalik yoki predmetlik, shakl deganda esa biz so'z turining morfologik tavsiflanishini tushunamiz. Masalan, otlar birlik va ko'plik kategoriyasi bilan tavsiflanadi, fe'llar esa zamon, nisbat, mayl kabilar orqali tavsiflanadi. Ba'zi so'z turlari (predloglar, bog'lovchilar) o'zgarmasligi bilan tavsiflanadi.

Vazifa deganda biz, so'zlarning sintaktik funksiyalarini tushunamiz. Masalan, boshqa so'zlar bilan birika olishi yoki uning gapdagi vazifasi. Tilshunoslar orasida so'z turkumlarining tasniflanishi turlichadir.

Fransuz tili nazariy grammatikasining namoyondalaridan Sh.Balli, G.Giyom va V.G.Gak singari tilshunos olimlar soʻz turkumlarini turli tarzda tasniflashni taklif qiladilar. Hatto ayrim tilshunoslar soʻz turkumlarini 12 ta turga ajratadi (6 ta mustaqil va 6ta yordamchi – *prepositions, conjunctions, particiles, mots modaux, articles, interjections*).

Ayrim tilshunoslar leksemalarning quyidagi besh xususiyatiga koʻra turkumlarga ajratadi:¹

- 1) leksik-grammatik maʼnosiga koʻra;
- 2) leksik-grammatik morfemalarga koʻra;
- 3) grammatik kategoriyalarga koʻra;
- 4) boshqa soʻzlar bilan birikishiga koʻra;
- 5) gapdagi vazifasiga koʻra;

Soʻz turkumlari muammosida til va nutqni bir-biridan farqlanmaganligi tufayli yordamchi soʻz turkumlaridan «ha», «yoʻq» soʻzlarini hamda modal, undov soʻzlarni ayrim grammatikachilar mustaqil soʻz turkumlariga, ayrimlari esa yordamchi soʻz turkumlariga kiritishini koʻrishimiz mumkin.

Ammo shuni taʼkidlash kerakki, yuqorida qayd etilgan unsurlar faqatgina nutq jarayonida uchrashini inobatga olganimizda ular hech qanday soʻz turkumiga tegishli emas. Rus tilshunosligida «ha!», «yoʻq» yoki modal soʻzlarni bir turkumga ajratgan boʻlsa, oʻsha tilshunoslikning taʼsiri natijasida boshqa tilshunoslar ham shu tasnifga moyillik koʻrsatadi. Lekin ularni sintagmatik holatda tahlil qilganimizda «ha», «yoʻq» soʻzlarining gapdagi oʻrni aniq bir joyda belgilanadi, yaʼni fikrni bayon etishda har doim gapning boshida uchraydi. Modal soʻzlar esa gapning istalgan oʻrnida kelishi mumkin. Undov soʻzlar, modal soʻzlar, «ha», «yoʻq» unsurlari faqat nutq jarayonida uchraydi.

Tilshunoslarimizning asosiy kamchiliklaridan biri paradigmatika va sintagmatikani yoki fransuz olimi L.Tenyerning¹ atamasi bilan aytganimizda virtuallik va aktuallikni yoki tema va rema hodisalarini farqlamaganidadir.

¹ Гак В.Г. Теоретическая грамматика французского языка. Морфология. –М.: ВШ., 1986. – С. 51-62

O'z-o'zidan ko'rinib turibdiki, har qanday tildagi mavjud bo'lgan til birliklarini morfologik jihatdan qarash har doim ham maqsadga muvofiq emas. Bundan tashqari, leksemalarni so'z turkumlariga ajratishda ularning sintaktik vazifalari ham hisobga olinishi kerak edi. Chunki *oui, non, si* unsurlari an'anaviy grammatikamizda ko'rsatilgan gap bo'laklarining birortasiga ham mos kelmaydi.

Fransuz tilida predloglar muammosiga kelsak, ularning ham o'zini alohida o'rganib bo'lmaydi, ular doim so'z birikmalar tarkibida o'rganiladi. Shuning uchun ham ular so'z birikmalari tarkibida turlicha ma'nolar kasb etadi. Bu hodisa esa to'liq o'rganilmagan. Bizning fikrimizcha, predloglarni sintaktik qatlamda o'rganish yana ham kengroq ko'rib chiqilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

Predloglar morfologik tuzilishiga ko'ra, sodda, yasama, qo'shma hamda murakkab turlarga ajratiladi. V.G.Gakning fikricha, predloglarning gapdagi vazifasi ham munozarali masaladir. Uning ta'kidlashicha, avvalambor, so'z birikmasi va gap kabi til qatlamlarini farqlab olish kerak. Agar so'z birikmasi nuqtai nazardan qaralganda, uning fikricha predloglarning vazifasi so'zlarni bir-biri bilan bog'lashdir. Gap sathida esa predlog hech qachon yakka holda alohida bo'lib kela olmaydi. Uning fikricha, predloglar gap bo'laklarini bog'lamaydi. Chunki, predloglar ikkita gap bo'lagi o'rtasida emas, balki biror gap bo'lagining ichida keladi.

Umuman olganda, predloglarning tasnifi va umumiy o'rganilishi ham alohida tadqiqotni talab etadi.

Bog'lovchilar narsa va tushunchalar o'rtasidagi bog'lanishni ifodalaydi. Bog'lovchilar shaklan turli-tumandir. Ular gapda biror gap bo'lagi vazifasida kela olmaydi. Ular faqat ikkita so'zni, iborani yoki gaplarni bog'lash vazifasini o'taydi. Bog'lovchilar morfologik tuzilishiga ko'ra, sodda, yasama, qo'shma va murakkab shakllarga ega. Ular vazifasiga ko'ra esa teng va biriktiruvchi bog'lovchilarga ajratiladi. O'z navbatida ma'nosiga ko'ra teng bog'lovchilar guruhi bir necha turga ajratiladi: biriktiruvchi; zidlovchi; ayiruvchi; sabab-natija.

¹ Теньер Л. Основа структурного синтаксиса: Перевод с франц. - Редкол.: Г.В.Степанов (Предисловие) и др.- Вступ. статья и общ. ред. В.Г.Гака.- М.: Прогресс, 1988.- С. 247.

Ayrim soʻz yoki gapga qoʻshimcha maʼno orqali jilo berish uchun xizmat qiladigan yordamchi soʻzlar yuklamalardir. Yuklamalar boshqa yordamchi soʻzlar kabi gapda mustaqil vazifaga ega emas. Maʼnosiga koʻra yuklamalar quyidagi guruhlariga ajratiladi: 1. Chegaralov yuklamalari, 2. Kuchaytiruv yuklamalari, 3. Taʼkid yuklamalari, 4. Inkor yuklamalari .

Undov hissiyotlarni ifodalab uni nomlash emas, balki hissiyotga boʻlgan munosabatni ifodalaydi. Ular gapda biror vazifada kelmaydi, lekin modal soʻzlar yakka holda gap boʻlishi mumkin (*Helas!*).

Soʻz turkumlari atalmish soʻzlarning leksik-grammatik guruhlari dunyo tillarining tipologik universalialari jumlasiga kiradi. Tilshunoslar soʻzlarni leksik-grammatik guruhlariga (soʻz turkumlariga) boʻlishda nazarda tutiladigan mezonlarga turlicha baho berishadi. Rossiya tilshunosligida rus tili soʻz tarkibini tasniflashda L.V.Sherbaning yozishicha, uchta belgi asos qilib olinadi:¹

Maʼno xususiyati (soʻzning leksik maʼnosi)

Morfologik xususiyati (soʻzlar va shakllar)

Sintaktik xususiyati (soʻzning gapdagi vazifasi).

V.V.Vinogradov esa bu belgilar sonini beshta deb hisoblaydi² va ularni soʻzning xarakteristikasiga binoan quyidagicha joylashtiradi:

- 1) sintaktik vazifalari,
- 2) morfologik qurilishi va shakllari,
- 3) leksik maʼnolari,
- 4) makonni ifodalash usullari,
- 5) maʼlum bir soʻz turkumi bilan bogʻliq boʻlgan grammatik kategoriyalarning mavjudligi.

Koʻrinib turibdiki, ushbu grammatik klassifikasiyada soʻzning sintaktik vazifasiga birinchi oʻrin, leksik maʼnosiga esa atigi uchinchi oʻrin ajratilgan.

¹ Щерба Л.В. Языковая система и речевая деятельность. –Л., 1974. –С. 177.

² Виноградов В. В. Русский язык –М., Высшая школа, – 1972 .– С. -319.

Biroq hozirgi zamon adabiy rus tili grammatikasida so'z turkumlari ta'rifi L.V.Sherbaning nazariyasidan, ya'ni uchta asosiy mezondan kelib chiqadi.¹ Ushbu so'z turkumlari ta'rifi konsepsiyasini quyidagicha umumlashtirish mumkin:

1) ularda umumiy kategorial ma'noning, ya'ni, birinchidan, mazkur guruhga tegishli bo'lgan barcha so'zlar leksik ma'nosining, ikkinchidan, ushbu guruhga tegishli bo'lgan grammatik kategoriyalarning mavjudligi;

2) paradigmaning umumiyliigi;

3) sintaktik funksiyalarning bir xilligi bilan xarakterlanadigan so'zlar guruhlaridir .

Fransuz va boshqa tillarda so'zlarni turkumlarga ajratish mezonlari darajasining grammatikachilar tomonidan turlicha tushunilishi, birinchi navbatda, so'z turkumlarining tillarda har xil ifodalanishi bilan izohlanadi.

Analitik tillar qatoriga kiruvchi fransuz tili birinchi navbatda, sintaktik belgilar va so'zlarning gapdagi funksiyalari hamda ularning bir-birlari bilan bog'lanishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqorida aytilganlardan kelib chiqib, fransuz tilida so'z turkumlari ta'rifi qabul qilingan uchta umumiy xususiyatdan (ma'no, shakl, vazifa) tashqari, ba'zi olimlarning fikricha, so'zlarning bir-birlari bilan bog'lanishi, ya'ni so'zning so'z birikmasidagi funksiyasini ham qo'shish kerak bo'ladi. So'z turkumlarini ajratish muammosi hozirgacha fransuz tilida mutaxassis olimlarning diqqat markazidadir.

Bizning fikrimizcha, hozirgi zamon fransuz tilida so'z turkumlari sonini 10 ta deb belgilash maqsadga muvofiqdir:

1. Nominativ funksiyaga ega bo'lgan mustaqil ma'noli so'zlar: ot; sifat; son; olmosh; fe'l; ravish;

2. Yordamchi so'zlar: artikllar ; predloglar ; bog'lovchilar; yuklamalar.

Ko'rinib turibdiki, semantik va grammatik xususiyatlariga ko'ra modal va undov so'zlar alohida leksik-grammatik so'zlar guruhi sifatida qaralib, so'z turkumlari qatoriga kiritilmadi.

¹ Щерба Л.В. Языковая система и речевая деятельность. –Л., 1974. –С.187.

Bunda so'zlarning mavqeyini, olimlarning qanday tushunishlariga qaramay, tan olish kerakki, fransuz tiliga xos bo'lgan artikldan tashqari, taqqoslanayotgan tillarda bir xil kategoriyaga ega bo'lgan so'zlar tizimi mavjuddir.

Holatni ifodalovchi so'zlar ham tilshunoslikda xuddi so'zlar kabi maqomga ega. Biroq, ular boshqa so'z turkumlariga xos so'zlarga nisbatan o'zlarining semantik va funksional munosabatlari bilan ajralib turadi.

Tilshunoslikda holatni ifodalovchi so'zlarni o'rganishga uringan tilshunoslarning ba'zilar bunday so'zlarni *fe'l so'zlar* deb atasa, ba'zilar esa *fe'l ma'nosiga ega bo'lgan qisqa sifatlar* deb, yoki *ot yo ravish so'z turkumiga xos so'zlar* deb ataydi. Lekin ba'zi tilshunoslar holatni ifodalovchi so'zlarni hech qaysi so'z turkumiga kiritmasdan, alohida o'rganadi.

Fransuz tilida holat kategoriyasini ifodalovchi so'zlar ma'lum bir shaxs yoki predmetning hozirgi, o'tgan va kelasi zamonlarning aniq bir momentiga xos sifatiy holatini ko'rsatish uchun xizmat qiladi. Ravishlarga xos *-ment* prefiksi holat kategoriyasini ifodalovchi so'zlarning tashqi morfologik ko'rsatkichi bo'lib hisoblanadi. Holat kategoriyasini ifodalovchi so'zlar tarkibli ot kesim vazifasidagi predikativ ishtirok etgan gaplarda va postpozitiv aniqllovchili gaplarda qo'llaniladi.

Tilshunoslikda holat kategoriyasini ifodalovchi so'zlar muammosini dastlab A.X.Vostokov, A.A. Shaxmatov, L.V.Sherba va V.V.Vinogradovlar ishlab chiqqan.

Holat kategoriyasini ifodalovchi bir xil semantikaga, ya'ni holat ma'nosini ifodalash xususiyatiga ega. Biroq holat kategoriyasini ifodalovchi so'zlar o'zlarining leksik tarkibiga ko'ra biroz farq qiladi.

Biz Magistrlik dissertasiyasimizning navbatdagi qismi, ya'ni asosiy qismida fransuz tilidagi holatni ifodalovchi so'zlarning grammatik va semantik xususiyatlari borasida imkoni boricha batafsilroq to'xtalishga harakat qilamiz. Xususan, holatni ifodalovchi so'zlarning tilshunoslikdagi leksik – grammatik mohiyati, uning tilshunoslikda o'rganilish darajasi va o'rganilish tarixi, ularning semantik xususiyatlari, shuningdek, morfologik strukturasi, gaplardagi sintaktik

funksiyasi, qolaversa, ularning tildagi boshqa sinonimlari, xususan, frazeologik birliklar orqali holat kategoriyasining ifodalanishi haqida to'xtalmoqchimiz.

1.3. “*Holat*” kategoriyasini ifodalovchi atamalar tilshunoslar talqinida

Tilshunoslik fanida holatni ifodalovchi so'zlar *predikativ ravishlar*, *shaxssiz predikativ so'zlar*, *predikativlar* kabi boshqa atamalar bilan ham izohlanadi. Ularning leksik-grammatik tabiati quyidagi holatlar bilan tavsiflanadi:¹

1. Borliqdagi tirik mavjudot, bizni o'rab turgan tabiat hamda atrof-muhitdagi narsalarning holatini modal ma'no bilan ifodalashda, ya'ni semantik belgilarning ifodalanishida;

2. So'zlardagi tuslanish va turlanish shakllarining mavjud emasligi hamda tilda analitik shakllarning mavjudligida, ya'ni morfologik belgilarning ifodalanishida;

3. Shaxssiz gaplarda bosh bo'laklardan kesim vazifasida kelishida, ya'ni sintaktik belgilarning ifodalanishida.

Ayrim manbalarda, masalan, D.E. Rozental va M.A. Telenkovalarning “Slovar – spravochnik lingvisticheskix terminov” nomli kitobida holatni ifodalovchi so'zlar boshqacha atama bilan, ya'ni *shaxssiz predikativ so'zlar* atamasi bilan nomlanadi. V.V.Vinogradov holatni ifodalaydigan so'zlarni o'zgarmas so'zlar guruhiga kirib, holatni anglatadi va kesim va bir sostavli gaplarda infinitiv bilan ifodalangan egani aniqlab keladi, deb ta'kidlaydi ²va ularni

1. Atrof muhitning sharoiti, ahvoli va holati;
2. Tirik mavjudodlarning fizik holati;
3. Insonlarning psixik holati;
4. Harakatning makon va zamondagi holati;
5. Harakat yoki holatga salbiy yoki ijobiy baho;
6. Modallik;

¹ Розенталь Д.Э., Теленкова М.А. Словарь-справочник лингвистических терминов. – М., 1976. – С. 143.

² Виноградов В. В. Русский язык –М., Высшая школа, – 1972 .– С. -319.

7. Daraja kabilarga ajratadi.

Holatni ifodalovchi so'zlar ham tilshunoslikda xuddi so'zlar kabi maqomga ega. Biroq, ular boshqa so'z turkumlariga xos so'zlarga nisbatan o'zlarining semantik va funksional munosabatlari bilan ajralib turadi.

Tilshunoslikda holatni ifodalovchi so'zlarni o'rganishga uringan tilshunoslarning ba'zilar bunday so'zlarni turlicha nomlaganlar. Bular quyidagilardir:

fe'l so'zlar;

fe'l ma'nosiga ega bo'lgan qisqa sifatlar;

ot so'z turkumiga xos so'zlar;

ravish so'z turkumiga xos so'zlar;

Tilshunoslarning ayrimlari holatni ifodalovchi so'zlarni *fe'l so'zlar* deb atasa, ba'zilar esa *fe'l ma'nosiga ega bo'lgan qisqa sifatlar* deb, yoki *ot* yoki *ravish so'z turkumiga xos so'zlar* deb ataydi. Lekin ba'zi tilshunoslar holatni ifodalovchi so'zlarni hech qaysi so'z turkumiga kiritmasdan, alohida o'rganadi.

Biz yuqorida holatni ifodalovchi so'zlarning tilshunoslikdagi umumiy tavsifiga e'tibor qaratdik. Quyida esa biz holatni ifodalovchi so'zlarning ma'lum bir til nuqtai nazaridagi tavsifiga, ya'ni fransuz tilidagi ko'rinishlariga diqqatimizni qaratmoqchimiz.

Fransuz tilida holat kategoriyasini ifodalovchi so'zlar ma'lum bir shaxs yoki predmetning hozirgi, o'tgan va kelasi zamonlarning aniq bir momentiga xos sifatli holatini ko'rsatish uchun xizmat qiladi. Holat kategoriyasini ifodalovchi so'zlar tarkibli ot kesim vazifasidagi predikativ ishtirok etgan gaplarda va postpozitiv aniqlovchili gaplarda qo'llaniladi.

Holat kategoriyasini ifodalovchi so'zlar bir xil semantikaga, ya'ni holat ma'nosini ifodalash xususiyatiga ega. Biroq holat kategoriyasini ifodalovchi so'zlar o'zlarining leksik tarkibiga ko'ra biroz farq qiladi. Ko'pchilik fransuz tilidagi lug'at va grammatikalarda bunday so'zlar predikativli sifat va ravishlar sifatida olib qaralgan.

Xorijiy leksikolog va grammatistlar holat kategoriyasini ifodalovchi so'zlarni shaxs va narsalarning holatini belgilash kabi o'ziga xos xususiyatini

ko'rsatgan holda sifat so'z turkumiga xos bo'lgan so'zlardan farqini ko'rsatib beradi, biroq ularni alohida bir grammatik sinfga ajratmaydi. Binobarin, ular holat kategoriyasini ifodalovchi so'zlarning ma'nosini ularni tasvirlash yo'li bilan ochib beradi.

I bobga xulosa

Ushbu bobimizga xulosa tariqasida shularni ta'kidlash joizki, Har qaysi fanning o'z kategoriyalari bo'lib, ular shu fanning xususiyatlarini ko'rsatib berish uchun xizmat qiladi. Shunday ekan, tilshunoslikdagi *kategoriya* tushunchasi ham ushbu fan doirasida qo'llanganda tilga xos bir qancha lingvistik kategoriyalarni ifoda etadi. Holatni ifodalovchi so'zlar ham tilshunoslikda xuddi so'zlar kabi maqomga ega. Biroq, ular boshqa so'z turkumlariga xos so'zlarga nisbatan o'zlarining semantik va funksional munosabatlari bilan ajralib turadi. Biz ularning grammatik mohiyati, til birliklaridan so'zlar orasida tutgan o'rni, qolaversa, tilshunoslarning holatni ifodalovchi so'zlarga bo'lgan munosabati va ularning aynan fransuz tili nuqtai nazaridagi ifoda shakllari xususida tahlil ishlari olib borish orqali tildagi holatni ifodalovchi so'zlar borasida qisqacha quyidagicha tarzda xulosa chiqardik:

1. Har qaysi fanning o'z kategoriyalari bo'lib, ular shu fanning xususiyatlarini ko'rsatib berish uchun xizmat qiladi. Shunday ekan, tilshunoslikdagi *kategoriya* tushunchasi ham ushbu fan doirasida qo'llanganda, tilga xos bir qancha lingvistik kategoriyalarni ifoda etadi. Xususan, tildagi modallik, nominativlik, kommunikativlik kabi kategoriyalar shular jumlasidandir. Ushbu tadqiqot obyekti hisoblangan frazeologiya fani doirasida ham *kategoriya* tushunchasi keng qamrovli bo'lib, u frazeologik birliklar semantikasiga xos harakat va holat, makon va zamon singari ma'no ottenkalarini o'zida mujassamlashtira oladi. *Kategoriya* tushunchasi turli xil manbalarda turlicha tavsifga ega. Biroq uning turlari xususida to'xtaladigan bo'lsak, ular orasida holat kategoriyasi doimo o'z o'rniga ega.

2. Holatni ifodalovchi so'zlarning leksik-grammatik tabiati borliqdagi tirik mavjudot, bizni o'rab turgan tabiat hamda atrof-muhitdagi narsalarning holatini

modal ma'no bilan ifodalashda, ya'ni semantik belgilarning ifodalanishida, so'zlardagi tuslanish va turlanish shakllarining mavjud emasligi hamda tilda analitik shakllarning mavjudligida, ya'ni morfologik belgilarning ifodalanishida, shaxssiz gaplarda bosh bo'laklardan kesim vazifasida kelishida, ya'ni sintaktik belgilarning ifodalanishida namoyon bo'ladi.

3. Holat kategoriyasini ifodalovchi so'zlar tilda holat ma'nosini ifodalovchi bir xil semantikaga ega. Biroq holat kategoriyasini ifodalovchi so'zlar o'zlarining leksik tarkibiga ko'ra biroz farq qiladi. Ko'pchilik tillardagi lug'at va grammatikalarda bunday so'zlar predikativli sifat va ravishlar sifatida olib qaralgan. Xorijiy leksikolog va grammatistlar holat kategoriyasini ifodalovchi so'zlarni shaxs va narsalarning holatini belgilash kabi o'ziga xos xususiyatini ko'rsatgan holda sifat so'z turkumiga xos bo'lgan so'zlardan farqini ko'rsatib beradi, biroq ularni alohida bir grammatik sinfga ajratmaydi. Binobarin, ular holat kategoriyasini ifodalovchi so'zlarning ma'nosini ularni tasvirlash yo'li bilan ochib beradi.

4. Fransuz tilidagi holatni ifodalovchi so'zlar ko'pchilik hollarda kesimning aniqlovchisi vazifasida keladi va turli vositalar orqali ifodalangan hol orqali namoyon bo'ladi. Bu xususda shuni e'tirof etishimiz lozimki, fransuz tilidagi holat ravishlari, shuningdek, ot so'z turkumiga xos so'zlarning turli xil ko'rinishlari holatni ifodalovchi so'zlarni tashkil etadi. Bundan tashqari, fransuz tilida holat kategoriyasini ifodalovchi vositalar birinchi navbatda, albatta, boshqa tillardagi kabi holat ravishlari, ya'ni *bien*, *mal* kabi sof holat ravishlari va – *ment* qo'shimchali yasama holat ravishlari hisoblanadi. Shuningdek, ot so'z turkumiga xos so'zlarning artikl va predloglar ishtirokidagi turli xil ko'rinishlari hamda fe'l va sifat so'z turkumiga xos so'zlar ham holat kategoriyasini ifoda etishda muhim rol o'ynaydi.

II BOB

FRANSUZ FRAZEOLIGIYHSIDA “*HOLAT*”

KATEGORIYASINING IFODA SHAKLLARI

2.1. Fransuz tilida “*holat*” kategoriyasining ifoda vositalari

Holatni ifodalovchi soʻzlar ham tilshunoslikda xuddi soʻzlar kabi maqomga ega. Biroq, ular boshqa soʻz turkumlariga xos soʻzlarga nisbatan oʻzlarining semantik va funksional munosabatlari bilan ajralib turadi.

Biz yuqorida holatni ifodalovchi soʻzlarning tilshunoslikdagi umumiy tavsifiga eʼtibor qaratdik. Quyida esa biz holatni ifodalovchi soʻzlarning maʼlum bir til nuqtai nazaridagi tavsifiga, yaʼni fransuz tilidagi koʻrinishlariga diqqatimizni qaratmoqchimiz.

Fransuz tilida holat kategoriyasini ifodalovchi soʻzlar guruhiga harakat tarzini ifodalovchi hol vazifasidagi soʻzlarni kiritish mumkin. Negaki, ular maʼlum bir shaxs yoki predmetning hozirgi, oʻtgan va kelasi zamonlardagi aniq bir momentiga xos sifatiy holatini koʻrsatish uchun xizmat qiladi.¹

Tilshunoslikda holat kategoriyasini ifodalovchi soʻzlar muammosini dastlab A.X. Vostokov, A.A. Shaxmatov L.V.Sherba va V.V.Vinogradov kabilar oʻrgangan. . Holat kategoriyasini ifodalovchi soʻzlar bir xil semantikaga, yaʼni holat maʼnosini ifodalash xususiyatiga ega. Fransuz tilida holat kategoriyasini ifodalovchi soʻzlar *Comment ?* soʻrogʻiga javob boʻlib, bir necha xil struktur koʻrinish kasb etadi. Bular quyidagilardan iborat :

1. Holat ravishlari bilan: *Il marche lentement.*
2. Predlog va infinitiv bilan : *Il va sans hésiter.*
3. Gerundiy bilan : *Il parlait en souriant.*
4. Predlogsiz ot bilan : *Il s’endort les yeux ouverts.*
5. Artiklsiz predlogli ot bilan : *Il parlait à voix basse.*
6. Artikl va predlogli ot bilan : *Il a parlé au hasard.*
7. Oʻxshatish maʼnosidagi *comme* soʻzi bilan: *Il courait comme un lapin.*
8. Holatni ifodalovchi ayrim sifatlar bilan : *Il est petit.*

¹ Л.И.Илия. «Синтаксис современного французского языка», -М., 1962. – С. 247.

Yuqorida keltirilgan holatni ifodalovchi soʻzlarning turlarini semantik jihatdan bir necha guruhlariga boʻlish mumkin. Xususan, ularni shaxsning ruhiy holatini ifodalovchi, shaxsning fizik holatini ifodalovchi, faoliyat va harakat holatini ifodalovchi, predmetning fizik holatini ifodalovchi holat kategoriyali soʻzlarga ajratsa boʻladi.

Yuqorida biz fransuz tilidagi holatni ifodalovchi soʻzlarning morfologik struktur tuzilishi xususida fikr yuritgan boʻlsak, quyida endi ularning sintaktik xususiyatlari, yaʼni gapdagi sintaktik vazifalari xususida fikr yuritmoqchimiz.

Hozirgi zamon fransuz tili grammatikasida holatni ifodalovchi soʻzlar gapda ikki xil sintaktik funksiyada kelishi mumkin. Bular quyidagilar :

1) Kesimni aniqlovchi hol vazifasida;

2) Ot-kesimning bir qismi vazifasida;

Bu yerda holatni ifodalovchi soʻzlarning sintaktik funksiyasida gapning subyekti, yaʼni eganing holati inobatga olinadi. Holatni ifodalovchi fransuzcha soʻzlar oʻzlarining ikkinchi sintaktik funksiyasida, yaʼni ot kesimning bir qismi vazifasida kelganda bogʻlovchi vazifasidagi (*être*) yoki holatni ifodalovchi turli xil feʼllar (*devenir, paraître* kabilar) bilan birikishi mumkin.

Fransuz tilidagi holatni ifodalovchi soʻzlar kesimning aniqlovchisi vazifasida kelganda turli vositalar orqali ifodalangan hol orqali namoyon boʻladi. Bu xususda shuni eʼtirof etishimiz lozimki, fransuz tilidagi holat ravishlari, shuningdek, ot soʻz turkumiga xos soʻzlarning yuqorida keltirilgandek turli xil koʻrinishlari holatni ifodalovchi soʻzlarni tashkil etadi.

Ushbu boʻlimga xulosa tariqasida shuni aytish mumkinki, fransuz tilida holat kategoriyasini ifodalovchi vositalar birinchi navbatda, albatta, boshqa tillardagi kabi holat ravishlari, yaʼni *bien, mal* kabi sof holat ravishlari va – *ment* qoʻshimchali yasama holat ravishlari hisoblanadi. Shuningdek, ot soʻz turkumiga xos soʻzlarning artikl va predloglar ishtirokidagi turli xil koʻrinishlari hamda feʼl va sifat soʻz turkumiga xos soʻzlar ham holat kategoriyasini ifoda etishda muhim rol oʻynaydi.

Biz Magistrlik dissertatsiyasimizning ushbu bo'limida fransuz tilidagi holat kategoriyasini ifodalovchi so'zlar va ularning semantik xususiyatlari, xususan, ular ifodalayotgan ma'nolarning semantik tasnifi va qolaversa, ularning fransuz tilidagi aniq tarkibi haqida kengroq to'xtalishga harakat qilamiz.

Fransuz tilidagi holat kategoriyasini ifodalovchi so'zlar tarkibida holat ma'nosini anglatuvchi so'zlar fransuz tili leksik tarkibida ko'pchilikni tashkil etadi. Ular hozirgi zamon fransuz tilida, umuman yozma nutqda ham juda keng tarzda qo'llaniladi. Quyida shunday so'zlardan ayrimlarini keltirib o'tamiz :

Holatni ifodalovchi so'zlar			
Fe'llar	Otlar	Sifatlar	Ravishlar
<i>craindre</i>	<i>hasard</i>	<i>bien</i>	<i>lentement</i>
<i>se fatiguer</i>	<i>fat</i>	<i>mal</i>	<i>joyeusement</i>
<i>rougir</i>	<i>ironie</i>	<i>petit</i>	<i>tranquillement</i>
<i>jaunir</i>	<i>irresponsabilité</i>	<i>ouverte</i>	<i>clairement</i>
<i>pâler</i>	<i>libertinage</i>	<i>forte</i>	<i>sérieusement</i>
<i>faiblir</i>	<i>limpidité</i>	<i>plein</i>	<i>brusquement</i>
<i>étouffer</i>	<i>loquacité</i>	<i>lente</i>	<i>immédiatement</i>
<i>sangloter</i>	<i>lourdaud</i>	<i>grosse</i>	<i>pensivement</i>
<i>flâner</i>		<i>longue</i>	<i>vivement</i>

Fransuz tilida yuqorida keltirilgan holatni ifodalovchi so'zlardan tashqari, yana yuzdan ziyod shunday so'zlar mavjud bo'lib, ular frazeologik birliklar bo'lib hisoblanadi. Bunday so'zlarning fransuz tilida ko'pchilikni tashkil etishi holat kategoriyasini ifodalashda frazeologik birliklar sarmahsulligidan dalolat beradi. Quyida ularning ayrimlarini misol tariqasida keltirib o'tamiz:

Holatni ifodalovchi fransuzcha frazologik birliklar	Holatni ifodalovchi fransuzcha frazologik birliklarning o'zbekcha talqini
--	--

<i>à pas feutres</i>	<i>ohista qadam bilan</i>
<i>visage ferme à triple tour</i>	<i>hotirjam ko'rinish</i>
<i>à boulets rouges</i>	<i>beshavqat, ayovsiz</i>
<i>à gorge déployée</i>	<i>ovozining boricha, baralla</i>
<i>mourir à petit feu</i>	<i>asta – sekin jon bermoq</i>
<i>à grosses gouttes</i>	<i>terlab – pishib, qora terga botmoq</i>
<i>olil en coin</i>	<i>g'arazli qarash</i>
<i>en sabots</i>	<i>achinarli ahvolda</i>
<i>mettre en peine</i>	<i>mushkul ahvolga qo'ymoq</i>
<i>ignorant comme un ange</i>	<i>farishtadek begunoh</i>

Yuqorida keltirilgan holatni ifodalovchi so'zlarning o'zi semantik jihatdan bir necha turlarga bo'linadi. Xususan, ularning orasidan shaxsning ruhiy holatini ifodalovchi, shaxsning fizik holatini ifodalovchi, faoliyat va harakat holatini ifodalovchi, predmetning fizik holatini ifodalovchi holatni ifodalovchi so'zlarni ko'plab uchratish mumkin. Masalan, quyida ularning har biriga alohida misollar berib o'tamiz. Buning uchun biz quyidagi ko'rinishdagi jadvaldan foydalanamiz:

Fransuz tilidagi holat kategoriyali so'zlarning s e m a n t i k t u r l a r i			
Shaxsning ruhiy holatini ifodalovchi	Shaxsning fizik holatini ifodalovchi	Faoliyat va harakat holatini ifodalovchi	Predmetning fizik holatini ifodalovchi
<i>rire</i>	<i>grand</i>	<i>courir</i>	<i>quadrilatère</i>
<i>être content de</i>	<i>petit</i>	<i>écrire</i>	<i>triangle</i>
<i>pleurer</i>	<i>grosse</i>	<i>dessiner</i>	<i>courbe</i>
<i>être triste</i>	<i>maigre</i>	<i>marcher</i>	<i>oblique</i>
<i>penser</i>	<i>longue</i>	<i>travailler</i>	<i>juste</i>
<i>inquiéter</i>	<i>court</i>	<i>suer</i>	<i>rond</i>

<i>troubler</i>		<i>jouer</i>	<i>plat</i>
<i>vexer</i>		<i>galoper</i>	<i>lisse</i>

Holatni ifodalovchi turg'un so'zlarning ayrimlari ma'lum bir predmetning holatini makonga nisbatan tavsiflaydi .

Fransuz tilida yana yuzdan ziyod shunday so'zlar mavjud bo'lib, ular turg'un bo'lmagan holatni ifodalovchi so'zlar hisoblanadi. Bunday so'zlarning fransuz tilida ko'pchilikni tashkil etishi holat kategoriyasining so'z yasash borasidagi sermahsulligidan dalolat beradi.

Holatni ifodalovchi so'zlarning o'zi semantik jihatdan bir necha turlarga bo'linadi. Xususan, ularning orasidan shaxsning ruhiy holatini ifodalovchi, shaxsning fizik holatini ifodalovchi, faoliyat va harakat holatini ifodalovchi, predmetning fizik holatini ifodalovchi holatni ifodalovchi so'zlarni ko'plab uchratish mumkin.

2.2. FBlar “*holat*” kategoriyasini ifodalovchi asosiy vosita sifatida

Biz tadqiq qilayotgan frazeologik birlik(FB)lar fransuz tili holatni ifodalovchi so'zlar, ya'ni ravishlar tarkibini to'ldirishning vositalaridan biri ekanligi ko'pchilik ishlarda o'z tasdig'ini topgan. Shunday ekan, harakat intensivligini ko'rsatuvchi FBlar ravishlar tarkibini boyituvchi manbalardan biri, degan fikrga qo'shilmaslik mumkin emas, chunki bunday birliklar hol vazifasidagi gaplarda o'zlarining sintaktik jihatdan qo'llanilish xususiyatlariga ko'ra ravishlarga juda yaqin turadi. Biroq, ularni ravishlar tarkibiga kiritish ba'zi bir qarama-qarshiliklarni keltirib chiqaradi. Xususan, bu ushbu so'z turkumini chegaralashda ancha qiyinchilik tug'diradi va turli xil sistemaga xos ikki xil til birligining aralashuviga olib keladi.

Hozirgi zamon fransuz tilida gapda hol vazifasida keladigan FBlar tilda ko'pchilikni tashkil etishi ma'lum. Bunday turdagi FBlarning aksariyatini

A.G.Nazaryan predikatsiz soʻz birikmasiga aʼloqador boʻladi, deb taʼkidlaydi hamda ularni struktur jihatdan bir necha turlarini ajratib koʻrsatadi:

bir tarkibli (sans phrase-soʻzsiz);
 bir-biriga tobe bogʻlangan (de bonne heure- barvaqt);
 predikativ strukturali (peu sʼen faut-kam-kam);
 qisman predikativlikni koʻrsatadigan (parle temps qui ourt-bizning davrimizda)¹.

Bunday FBlar harakatni asosan ichki tomondan tavsiflaydi, lekin ularning maʼlum bir qismigina harakatni tashqi tomondan tavsiflash xususiyatiga ega. Misol uchun: *à visage recouvert – se montrer; de bon cœur – accepter; etc.*

Harakat bajarilishidagi intensivlik gapda intensifikatorlar vazifasida xizmat qiladigan FBlar orqali ifodalanganda, (masalan, *à toute force, à toute allure, de plein vol, à main ouverte*, kabilar bilan) ular harakat belgilarini tavsiflashdagi boshqa belgilar bilan qiyoslanmaydi, balki ularning oʻzlari kuchaytiruvchi tavsifga ega boʻladi. Ulardagi maʼnolarning amalga oshishida yordam beradigan boshqa soʻzlarning ishtirok etishi orttirma darajali maʼno emas, balki kuchaytirilgan maʼnoning yuzaga kelishiga imkon yaratadi. Ular ekspressiv-emosional maʼnolarni hosil qiladi va shuningdek, absolyut superlativ-elativ shakllarga oʻxshab ketadi, yaʼni harakatning maʼlum belgilaridagi intensivlikning yuqori darajasini ifodalash shakllariga (boshqa harakat belgilari bilan qiyoslashdan tashqari) mos keladi. Masalan: *Elle voulut à toute force aller le trouver; elle avait regagné à toutes jambes la maison.*

Tadqiq qilinayotgan frazeologik iboralar oʻzlarida mustaqil va yordamchi soʻzlar birikishining maxsus turini aks ettiradi. Bunda yordamchi va mustaqil soʻzlardagi xususiy maʼnolarning u yoki bu darajadagi maʼno koʻchishi iboraga butun yangi maʼno baxsh etadi. Aynan bunday soʻz birikmalari maʼnosining oʻzgarishi semantik jihatdan yaxlit FBlarning paydo boʻlishiga olib keladi. Birikmalar tarkibi leksemalarning aniq uygʻunlashuvi bilan mustahkamlanganligiga qaramasdan, ulardan anglashilayotgan umumiy maʼno

¹ Назарян А. Г. Фразеология современного французского языка.- М: Высшая школа, 1976.- С 110.

FBlar tarkibini tashkil etuvchi komponentlarning xususiy ma'nolaridan kelib chiqmaydi. Leksemalar bunday uyg'unlashuv jarayonida tarqalib ketmaydi.

FBlardagi ma'no ularning tarkibidagi komponentlarga xos ma'nolarning to'liq yoki qisman ko'chishi natijasida paydo bo'ladi. Ularning struktur tarkibida albatta, otli komponentlarning mavjudligi fe'l frazeologik intensifikatorlariga xos xususiyatlardan biri bo'lib hisoblanadi. Bu otli komponent esa o'z navbatida aniqlovchi bilan semantik jihatdan bir-biriga mos kelib, ma'lum bir mavzuni ko'rsatib keladi. Bunday holat fransuz tilidagi frazeologik intensifikatorlarni bir nechta turlarga ajratishda yordam beradi. Bular quyidagilardan iborat:

1) Inson tana a'zolari va ularning inson ko'z o'ngidagi namoyishini ifodalaydigan otlardan tashkil topgan FBlar: *à belles mains-halollik bilan, à belles dents-xushmuomalalik bilan, de plein vol-qulochkashlab;*

2) Kundalik turmushda insonni o'rab turgan aniq predmetlarni ifodalaydigan otlardan hosil bo'lgan FBlar: *à plein corbeille-saxiylik bilan, à plein gaz-zudlik bilan, à petit feu-ohistalik bilan, à deux portes-ostonlikcha;*

3) Mavhum tushunchalarni ifodalaydigan otlardan yasalgan FBlar: *à toute outrance-ayamasdan, de toute âme-chin qalbdan, en toute liberté-emin-erkin.*

FBlarning bu uch turi ichida birinchisi tilda ko'pchilikni tashkil etadi va eng ko'p qo'llaniladigan intensifikatorlar bo'lib hisoblanadi. Biz shu guruhga xos bo'lgan intensifikatorlar haqida batafsilroq to'xtalmoqchimiz.

Bu guruhga xos bo'lgan frazeologik intensifikatorlarning aniq ekstralingvistik omillar bilan aloqadorligi ularning o'ziga xos jihatlaridan biri bo'lib hisoblanadi. Harakatni ifodalashda ancha aniq usullardan foydalanish fransuz tiliga xos xususiyatdir. Bu holat fe'l intensifikatorlari sifatida xizmat qiladigan inson tana a'zolari nomlari va ularning inson ko'z o'ngidagi namoyishini aks ettiradigan otli komponentlar orqali ifodalangan ko'pchilik FBlarning qanday yasashini tushunishga imkon beradi.

Inson tanasining ma'lum bir harakatni bajarishga qodir qismlarini ifodalovchi *main-qo'l, bouche-og'iz, dents-tish, gorge-tomoq, nez-burun* kabi so'zlar erkin birikmalarda harakatni tavsiflash uchun xizmat qiladi. Umuman olganda, harakatni

tavsiflash jarayonida harakatning amalga oshishida ishtirok etadigan tana qismlari ham bir vaqtning o'zida tasavvur qilinadi. Shunday qilib, FBlar inson tana a'zolari nomlarini ifodalovchi so'zlar bazasida (*gorge* (f) - *tomoq*, *jambes* (f, pl) - *oyoq*, *corps* (m) - *tana*, *poitrine* (f) - *ko'krak*, *langue* (f) - *til*, etc), ya'ni bu so'zlarning vositasiz nominativ ma'nolari asosida namoyon bo'lishi mumkin. Xususan, ulardagi grammatik strukturaning o'ziga xosligi birikmalarning frazeologik xususiyatini to'la-to'kis belgilaydi.

FBlarning umumiy tarzda qo'llanilishi va erkin birikmalar harakatini obrazli qilib tasvirlashi komponentlardagi ma'noning to'liq yoki qisman ko'chishiga olib keladi. Yuqorida keltirilgan so'zlar esa yangicha FB komponentlariga aylanadi.

Bunday semantik qayta yasaliş natijasida fransuzcha erkin so'z birikmalar va FB elementlari o'rtasidagi jonli sintaktik aloqa yo'qoladi. FB komponentlari tashqi belgilardan hisoblangan qat'iylik va o'zgarmaslik bilan bir qatorda ichki belgilarga ham ega. Bular ma'no jihatdan bo'linmas komponentlar o'rtasidagi sintaktik aloqaning mavjud emasligini va ba'zi komponentlarda arxaizm munosabatlarini o'z ichiga oladi. Semantik butunlikni bilvosita tashkil etuvchi grammatik strukturalarning o'ziga xosligi so'z birikmalarining frazeologik xususiyatlarga ega ekanligini to'la-to'kis aks ettiradi.

FBlarning ko'pchiligi ayrim ravishlarga mos keladi: *à bras raccourci(s) – violemment*; *à pleines main – abondamment, fortement*; *à pleine poitrine – profondement, fortement*; *à poings fermes – profondement*.

Yuqoridagi kabi fransuzcha FBlarning tarkibiy komponentlarida arxaizm hodisasiga duch kelamiz. Xususan, ularning komponentlari o'rtasidagi o'zaro aloqa hozirgi zamon fransuz tilining grammatik normalariga mos kelmaydi. Chunki birikma tarkibidagi otlarning predlogdan so'ng artiklsiz holda qo'llanilishi grammatik arxaizmning mavjudligidan dalolat beradi. Bu esa komponentlarning semantik jihatdan ancha mustahkam ekanligini ta'minlaydi.

Bir qator tadqiqotchilar artiklsiz qurilmalar semantik bog'liqlik orqali ifodalanishini ko'rsatib o'tgan.¹ Biroq FBlarda artikllarning tushib qolish hodisasi

¹ Clatigny M. La place des adjectifs épithètes dans deux œuvres de Nerval // "Le français moderne". – Paris, 1973. N3. – P. 213-232;

hanuzgacha o'zining aniq yechimini topa olgani yo'q. Xususan, R.Gurmon ba'zi bir iboralaridagi otlarning artiklsiz holda ishlatilishini shunday ta'riflaydi: «Ot so'z turkumiga xos bo'lgan so'zlar faqat etimologik nuqtai nazardan ot hisoblanadi, shunga ko'ra ushbu iboralarda otlar mustaqil ma'nolarini yo'qotadilar»¹.

G.Gross esa artiklsiz qurilmalardagi otlarni grammatik kategoriya sifatida qabul qilmaydi va ularni aniq ifodalangan predmet ma'nosiga ega emas deb hisoblaydi.² Bu xususdagi barcha fikrlar to'g'ri va o'z isbotini topgan. Biroq ba'zi bir mualliflar hozirgi zamon fransuz tilidagi *sans repit, en sandwich, par éclat* kabi artiklsiz iboralar ko'pchilikni tashkil etishiga tayangan holda FBlar tarkibidagi otlarning artiklli va artiklsiz holatlarini tushuntirish masalasiga qarshi turadilar.

Biz ushbu hodisa borasida frazeologiyada grammatik arxaizmlar saqlanib qolganligiga tayangan holda FBlardagi artikllarning tushib qolishi yoki mavjudligini diaxroniya hodisasi deb hisoblovchi mualliflarning fikriga qo'shilamiz.

Fransuz tili sintetik qurilishdan analitik qurilishga o'tish davridagi o'z tarixiy taraqqiyotida asta-sekinlik bilan analitik qurilishning yangi elementlarini o'zlashtirib oladi. Analitik qurilish elementi hisoblangan artikllarning qo'llanilishi ma'lum bir davrlar ichida umuman cheklangan. Hozirgi vaqtga kelib esa, aynan biz tadqiq qilayotgan fe'l frazeologik intensifikatorlar tarkibida ham artikllarning tushib qolishi kuzatiladi: *à poings fermes, à gorge déployée, à bride abattue, à boule vue, à tombeau ouvert, à main fermée, à pas feutres, à dépêche compagnon etc.* Shuningdek, bunday FBlar tarkibidagi mustaqil va yordamchi so'zlar o'rtasidagi aloqa xuddi bir-biri bilan uyg'unlashmagandek ko'rinadi yoki V.V. Vinogradov atamasi bilan aytganda, bunday holat «so'zlardagi qadimgi tilga

¹ Gourmont R.de. Esthétique de la langue française: La déformation – la métaphore, le cliché, le vers libre-le vers populaire. – Plan de la Tour: Ed. d'aujourd'hui, 1985. – P.124-125.

² Grosse G. Syntaxe du déterminant possessif // Déterminants: syntaxe et sémantique. – Paris. 1986.-P. 87-88.

mansub munosabatlarning qayta ishlangan holdagi etimologik jihatdan aks etishi» dir¹.

Yana shuni ham ta'kidlash kerakki, fe'l frazeologik intensifikatorlarining «**predlog + aniqlovchi + ot**» yoki «**predlog + ot + aniqlovchi**» ko'rinishidagi fe'l frazeologik intensifikatorlari tarkibidagi predloglarning boshqa komponentlar bilan o'zaro o'rin almashishi va tushib qolishi umuman kuzatilmaydi: *à pleins doigts, à pleins poumons, à deux mains, à toute vitesse, etc.* Bunday holatni shunday izohlash mumkinki, fe'lli frazeologik intensifikatorlar tarkibidagi predlog butun birikmaga tegishli bo'lib, berilgan til birligini aynan ravishlarga xos ekanligini ko'rsatadi.

Fe'l frazeologik intensifikatorlari vazifasidagi FBlarning yasali sh jarayonida *à, en, de* predloglaridan keng ko'lamda foydalaniladi. Bu mulohaza Z.N. Levit tomonidan o'tkazilgan hozirgi fransuz tilidagi FB tarkibiy qismlarini tashkil etuvchi turli xil so'zlarning qo'llanilish darajasini tahlil qilish orqali o'z isbotini topgan.² Shuningdek, fransuz tilidagi *à* predlogi FBlar tarkibida eng ko'p qo'llaniladigan predlog ekanligi ma'lum bo'lgan.

M.S. Guricheva ham *à* predlogini qo'llash darajasining nihoyatda keng ekanligini uqtirib o'tadi: «Fransuz tilidagi *à* va *de* predloglari qadimdan keng tarqalgan bo'lib, ko'plab sintantik munosabatlarni ifodalovchi predloglar hisoblanadi».³

Fe'l frazeologik intensifikatorlarining tarkibiy komponentlari bo'lmish ot va sifat so'z turkumlariga xos so'zlarning qo'llanilishi xususida to'xtalsak, ot so'z turkumiga xos so'zlar xuddi erkin so'z birikmalardagi kabi o'z aniqlovchilari, ya'ni sifatlardan oldin yoki keyin kelishlari mumkin. Faqat shuni ta'kidlash joizki, tadqiq qilinayotgan FBlar tarkibida sifatlarning otlardan oldin kelish holati berilgan belgi intensivligining yuqori darajasini ko'rsatish uchun xizmat qiladi:

¹ Виноградов В.В. Основные понятия русской фразеологии как лингвистической дисциплины // Избр. труды, т. 3. – Лексикология и лексикография. – М., 1977. – С. 64.

² Левит З.Н. К проблеме изучения компонентов фразеологических единиц (на материале французского языка) // Филологические науки. – М., 1965. – №2. – С. 78.

³ Гуричева М.С. Очерки по синтаксису новофранцузского языка. – М.: ВШ, 1965. – С.129-130.

*pleurer à **gros** sanglots-o'kirib yig'lamoq, fuir au **grand** galop-jon-jahti bilan yugurmoq, puiser à **pleines** mains-saxiylik bilan sarflamoq.*

Shu tariqa ko'rinib turibdiki, frazeologik intensifikatorlar vazifasidagi FBlarda harakat intensivligining turli xil darajasini ifodalash otli komponentlarda artiklning tushib qolishi va sifatlarning otdan oldin yoki keyin kelish hollari kabi struktur xususiyatlar orqali amalga oshiriladi.

Bu xususda leksikologiya va semasiologiyani muhim vazifalaridan biri, ya'ni FBlarning semantik strukturasi muhim ahamiyatga ega. FBlar semantikasini o'rganishda shu narsa ayon bo'ldiki, FBlar tarkibidagi aniqlovchilar FBlarning muhim ahamiyatini belgilaydigan semantik markaz hisoblanadi. U o'zida FBlarga xos obyektli strukturaning asosini aks ettiradi.

FBlarning semantik strukturasi aniqlash paytida ulardagi ma'nolarni semantik sistemaning boshqa elementlari orqali aniqlash FBlar ichki semantikasining o'zgarishiga olib keladi. Bu holat komponentlardagi ma'nolarning sinonimik va antonimik aloqalari bilan bog'liq bo'lgan o'zgarishlar orqali belgilanadi.

Predlog + ot + aniqlovchi ko'rinishidagi erkin so'z birikmalar fe'l intensifikatorlari sifatidagi FBlardan farq qiladi, chunki ularning asosida predmet, harakat va hodisalarning real aloqasi yotadi. Otlar bunday birikmalarning tayanch komponenti hisoblanib, ular ma'lum bir harakatni ifodalovchi fe'llar bilan bog'liq ravishda namoyon bo'ladi. Birikmalar tarkibidagi sifatlar esa ot so'z turkumiga xos so'zlarni baho jihatdan tavsiflaydi. Shuningdek, fe'llar va sifatlar bunday turdagi erkin birikmalarda qo'shimcha komponentlar sifatida aks etadi.

Bu holat tadqiq qilinayotgan frazeologik intensifikatorlarda boshqacha tus olishi mumkin. Ya'ni erkin birikmalardagi ma'no predlog, ot va sifatlar o'rtasida teng taqsimlanadi. FBlarda esa komponentlarning ma'nolari o'rtasidagi munosabatlar va ularning butun birlik ma'nosini yasashdagi roli ma'lum darajada notekisligi bilan tavsiflanadi.

Yuqorida ko'rib chiqilgan turdagi FBlar semantikasining o'ziga xosligi shundaki, aniqlovchilar FB ma'nolarini belgilovchi asosiy semantik markaz

hisoblanadi. Boshqa soʻzlar, jumladan, otlar sifatlarning kategorial belgilarini namoyon qiladi. Sifatlar esa oʻz navbatida otlarga qoʻshimcha leksik maʼno baxsh etadi, yaʼni harakat intensivligini ifodalaydigan FBlarning u yoki bu global maʼnolarini yasashdagi hal qiluvchi element sifatida gavdalanadi. Misol uchun: *à pleines voiles - aller; en pleine chair - blesser; à petit feu - brûler; à chaudes larmes - pleurer etc.*

Komponent maʼnolarining bunday notekis tarzda taqsimlanishi va maʼnolardagi turli xil tavsiflar barcha komponent maʼnolarining bogʻlanishini semantik birlik yasash natijalari bilan moslashtiradi. Shu bilan birga, shuni ham aytib oʻtish kerakki, tadqiq qilinayotgan frazeologik intensifikatorlardagi ichki asosiy maʼnolar leksik komponentlarni va ularning grammatik struktura bilan moslashish qoidalarini farqlashi mumkin. Yaʼni FBlardagi leksik komponentlar bir-biri bilan oʻzaro aloqada boʻla turib, FBga xos maʼnoni tashkil etadi. Baʼzida ularni qisman leksik markerlar deb ham ataydilar. Leksik markerlar bilan bir qatorda morfologik va sintaktik markerlarni ham ajratib koʻrsatish mumkin. Ot va sifatlarga xos morfologik markerlar rod va son (*f, m, sing, pl*) grammemalaridan iborat. Ularning sintaktik markerlari esa tarkibiy elementlarning bir chiziq toʻgʻri tartibidan iboratdir. Tadqiq qilinayotgan FBlarning bunday sintaktik markeri doimiy hisoblanadi. Biroq FBlar faoliyati jarayonida baʼzi bir oʻzgarishlar yuz berishi mumkin. Jumladan, qoʻshimcha komponentlarning paydo boʻlish va tarkibli komponentlar toʻgʻri tartibining buzilish hollari sodir boʻladi:

<i>se battre à grands coups</i>	– <i>se battre à <u>si</u> grands coups</i>
<i>marcher à pas lents</i>	- <i>marcher à pas <u>très</u> lents</i>
<i>emmener au petit trot</i>	- <i>suivre à <u>très</u> petit trot</i>

Ushbu misollardagi kabi qoʻshimcha komponentlarning paydo boʻlishi situativ va kontekstual tarzda yuz beradi. Bu vaqtda FBlar tarkibidagi doimiy komponentlar oʻzlarining situativ va kontekstual mustaqilligi bilan ajralib turadi.

Ot bilan birikib kelgan sifatlar inson tana qismi va uning faoliyatini ifodalagan holda fe'l frazeologik intensifikatorlarining doimiy tarkibiy qismi bo'la oladimi? degan savol tug'ilishi mumkin.

Avvalambor, shuni ta'kidlash lozimki, tadqiq qilinayotgan FBlar tarkibida belgining sifatini va miqdor darajasini ko'rsatuvchi quyidagi sifatlarni ko'plab uchratish mumkin: *plein – e, grand-e, long-ue, gros-se, lent-e, petit-e, tout-e*. Ma'lumki, FBlardagi asosiy ma'no erkin so'z birikmalardagi komponentlarning turli xil ma'no ko'chishi asosida yasaladi. Bundan kelib chiqqan holda shunday taxmin qilish mumkinki, ma'lum bir sifat erkin so'z birikmalar tarkibiga kirgan holda ot va predlog bilan birgalikda yagona bir tushunchani ifoda etadi. Ma'noning metaforik tarzda o'zgarishi jarayonida ham ular yagona tushunchani ifodalaydi, lekin mavhumlikning ancha yuqori darajasi bilan farq qiladi. Yuqorida ko'rsatilgan sifatlar fe'l frazeologik intensifikatorlari vazifasidagi FBlar tarkibining juda ko'p qo'llaniladigan elementi bo'lib, ular belgining sifat va miqdor ifodasini aniq namoyon eta oladi.

Bundan shu narsani anglash mumkinki, sifatlar FB tarkibidagi komponentlarning boshqalari bilan bog'liq holda so'zlar o'rtasidagi munosabatlarni va ular ifodalagan tushunchalarni ifodalaydi. FB tomonidan ifodalangan intensivlik darajasining yagona, murakkab tushunchasi obyektiv borliqning ma'lum predmet yoki hodisalarga xos bo'lgan mavhum belgilarini o'zida aks ettiradi. Fransuz tilidagi *gros - katta, semiz, grand - katta, plein - to'la, long - uzun, petit - kichkina* kabi so'zlar harakat intensivligining darajasini ko'rsatuvchi FBlar tarkibida ko'plab uchrashi mumkin.

Tadqiq qilinayotgan frazeologik intensifikatorlarning tarkibiy komponentlaridan biri, ya'ni sifatlar tana qismlari yoki ularning faoliyatini namoyish qilishni ifodalaydigan otlar bilan bir-biriga mos ravishda birika oladi. Masalan, fransuz tilidagi *plein* sifatini olsak, uning ayniqsa inson tana a'zolarini ifodalovchi quyidagi otlar bilan birikishini ta'kidlash o'rinlidir:

à plein ventre (to'yib) – manger, boire;

à pleins bras (quchib) – saisir, remuer, tenir;

à pleines prunelles (o'z ko'zi bilan) – contempler, regarder;

à pleine poitrine (jo'shib) – chanter;

Ma'lumki, intensivlikning yuqori darajasini ifodalovchi FBlar bu vaqtda ma'lum belgi paydo bo'lishining cheklangan darajasini ko'rsatadi. Tadqiq qilinayotgan FBlar tarkibidagi *plein* sifati ot so'z turkumiga xos bo'lgan *pied* so'zi bilan hech qachon birikib kelmaydi. Bu shu narsa bilan izohlanadiki, FB mazmunining ko'p qismi o'zida reallikning obyektiv borliq predmetlari bilan qiyoslanishini aks ettiradi.

FBlar tarkibida inson tana a'zosi va uning namoyishini ifoda etuvchi so'zlar ko'pchilikni tashkil etadi va ular birikmada ko'chma ma'noni yasash uchun xizmat qiladi. Shuningdek, *qo'l - les mains*, *tish - les dents*, *barmoq - les doigts* kabi inson tana qismlari ko'pincha ko'plik shaklda ishlatiladi. Bunday frazeologik intensifikatorlar asosida u yoki bu tana qismi ishtirokidagi hissiy tasavvur yotadi. Ushbu hissiy tasavvur butun iboraga ekspressiv-emosional bo'yoq baxsh etgan holda FB mazmunida u yoki bu darajada faollashadi. Bunday FBlar tarkibiga kiruvchi *grand-katta*, *petit-kichkina*, *long-uzun*, *epais-qalin*, *large-keng*, *gros-semiz* kabi sifatlar aniq otlar bilan birikib, inson tana a'zosi faoliyatini aks ettiradi:

à gros sanglots-o'kirib;

à grosses gouttes-terga pishib;

au grand galop-yugurib;

à petits pas-mayda qadam bilan;

à grands pas-shaxdam qadam bilan;

à petits gestes-ohista;

à grands cris-ovozining boricha;

au petit trot-sekin-asta;

à toute force-bor kuchi bilan;

à longs traits-shoshmasdan;

en toute hâte-shoshilib;

de vive force-majburan;

Predlog + ot + aniqlovchi yoki **predlog + aniqlovchi + ot** ko'rinishidagi harakat intensivligini ifodalovchi frazeologik intensifikatorlarning tarkibiy komponentlariga xos struktur va ma'no munosabatlarning mohiyati qisqacha shulardan iborat.

2.3. Ravishli FBlarda “*holat*” kategoriyasi

Fransuz tilida ravish soʻz turkumiga xos soʻzlar harakat darajasini ifodalash muammosi bir nechta ravish soʻz turkumining (*tant, assez, trop, peu, tellement, beaucoup, etc.*) mavjudligi bilan bogʻliq. Bu ravish soʻz turkumi feʼlli birikmalarda amaliy belgining u yoki bu intensivlik darajasini amalga oshirishga imkon beradi. Bunday ravish soʻz turkumi harakatning intensivlik darajasini ifodalashning xolisona baholash va emosional - neytral vositasi sifatida namoyon boʻladi.

Miqdor ravishlarining boshqa soʻzlar bilan birikish xususiyati chegaralanmagan. Shunga asosan, ular maʼnosidan qatʼiy nazar har qanday feʼl bilan birikib, kuchaytirilgan birikmalarni hosil qilishi mumkin.¹ Harakat belgisining miqdoriy oʻzgarishi oʻz meʼyoridan oshmagan holda butunlay kuchaytirilishi yoki butunlay kamaytirilishi mumkin, yaʼni ravish soʻz turkumi harakatni ifodalashning turli xil darajalarini koʻrsatish xususiyatiga egadirlar. Masalan, harakatning past darajasi ***peu*** ravishi bilan, oʻrta darajasi ***assez*** ravishi bilan, kuchli darajasi esa ***beaucoup, tant, trop, tellement*** ravishlari orqali ifodalanadi.

Fransuz tilida harakat intensivligini ifodalashning yana boshqa usuli mavjud. Bu usul–*ment* qoʻshimchasi bilan yasaladigan ravishlardan iborat. Ravishlarning *-ment* qoʻshimchali turlari harakatning obyektiv darajalarini ifodalaydigan kuchaytiruvchi ravishlar (*peu, beaucoup, tant, trop, tellement*) bilan qarama-qarshidir. Ular koʻpincha subyektiv baholovchi hamda harakatning emosional belgilarini ifodalovchi ravishlar sifatida xizmat qiladi. Masalan, *danser beaucoup – danser énormément; attendre tant – attendre ardemment; s’empourprer tellement – s’empourprer violemment*.

Haqiqatdan ham, *-ment* qoʻshimchali ravishlar sof ichki tuzilishga ega va berilgan soʻz bilan bir-biriga aniq mos keladi. Ulardagi kuchaytiruvchi mavhum maʼnoning rivojlanishi ularning boshqa soʻzlar bilan birikish doirasini kengaytiradi, shuningdek, ularning keng koʻlamda ishlatilinishiga imkon yaratadi. Maʼlum belgini kuchaytirish vazifasi sifat-baholovchi maʼnoli ravishlarning

¹ Гак В.Г. Теоретическая грамматика французского языка. Морфология. –М.: ВШ, 1986. С.268.

qo'llanilishidagi so'zlarning ma'no qatlamida sodir bo'ladigan doimiy ma'no almashinuvi jarayoni bilan moslashadi. Ravishlarning *-ment* qo'shimchali holati orqali FB(frazeologik birlik)lardagi oldingi ma'noning yo'qolishi natijasida ularning birikish doirasi kengayadi va bu ularning keng qo'llanilishini ta'minlaydi. Xususan, *violemment – jon-jahti bilan, énormement – haddan ziyod, ardemment – astoydil* kabi ravishlar turli ma'nodagi fe'llar bilan birikishi va ulardagi harakat belgilarini kuchaytirishi mumkin. Masalan:

violemment – secouer, frapper, ouvrir, fermer, s'empourprer, etc.

énormement – aimer, jouer, boire, fumer, danser, écrire, dormir, etc.

ardemment – attendre, redouter, dire, souhaiter, etc.

Biz tadqiq qilayotgan FBlar ravishlar tarkibini boyituvchi manbalardan biri, degan fikrga qo'shilmaslik mumkin emas, chunki bunday birliklar hol vazifasidagi gaplarda o'zlarining sintaktik jihatdan qo'llanilish xususiyatlariga ko'ra ravishlarga juda yaqin turadi. Biroq, ularni ravishlar tarkibiga kiritish ba'zi bir qarama-qarshiliklarni keltirib chiqaradi. Xususan, bu ushbu so'z turkumini chegaralashda ancha qiyinchilik tug'diradi va turli xil sistemaga xos ikki xil til birligining aralashuviga olib keladi. Hozirgi zamon fransuz tilida gapda hol vazifasida keladigan FBlar tilda ko'pchilikni tashkil etishi ma'lum. Bunday FBlar harakatni asosan ichki tomondan tavsiflaydi, lekin ularning ma'lum bir qismigina harakatni tashqi tomondan tavsiflash xususiyatiga ega. Misol uchun: *à visage recouvert – se montrer; de bon cœur – accepter; etc.*

Harakat bajarilishidagi intensivlik gapda intensifikatorlar vazifasida xizmat qiladigan FBlar orqali ifodalanganda, (masalan, *à toute force, à toute allure, de plein vol, à main ouverte* kabilar bilan) ular harakat belgilarini tavsiflashdagi boshqa belgilar bilan qiyoslanmaydi, balki ularning o'zlari kuchaytiruvchi tavsifga ega bo'ladi. Ulardagi ma'nolarning amalga oshishida yordam beradigan boshqa so'zlarning ishtirok etishi orttirma darajali ma'no emas, balki kuchaytirilgan ma'noning yuzaga kelishiga imkon yaratadi. Ular ekspressiv-emosional ma'nolarni hosil qiladi va shuningdek, absolyut superlyativ-elativ shakllarga o'xshab ketadi, ya'ni harakatning ma'lum belgilaridagi intensivlikning yuqori darajasini ifodalash

shakllariga (boshqa harakat belgilari bilan qiyoslashdan tashqari) mos keladi. Masalan: *Il veut à toute force aller le trouver.*

Elle avait regagné à toutes jambes la maison.

Tadqiq qilinayotgan frazeologik intensifikatorlar o'zlarida mustaqil va yordamchi so'zlar birikishining maxsus turini aks ettiradi. Bunda yordamchi va mustaqil so'zlardagi xususiy ma'nolarning u yoki bu darajadagi ma'no ko'chishi iboraga butun yangi ma'no baxsh etadi. Aynan bunday so'z birikmalari ma'nosining o'zgarishi semantik jihatdan yaxlit FBlarning paydo bo'lishiga olib keladi. Birikmalar tarkibi leksemalarning aniq uyg'unlashuvi bilan mustahkamlanganligiga qaramasdan, ulardan anglashilayotgan umumiy ma'no FBlar tarkibini tashkil etuvchi komponentlarning xususiy ma'nolaridan kelib chiqmaydi. Leksemalar bunday uyg'unlashuv jarayonida tarqalib ketmaydi.

Frazeologik intensifikatorlardagi ma'no ularning tarkibidagi komponentlarga xos ma'nolarning to'liq yoki qisman ko'chishi natijasida paydo bo'ladi. Ularning struktur tarkibida albatta, otli komponentlarning mavjudligi fe'l frazeologik intensifikatorlariga xos xususiyatlardan biri bo'lib hisoblanadi. Bu otli komponent esa o'z navbatida aniqlovchi bilan semantik jihatdan bir-biriga mos kelib, ma'lum bir mavzuni ko'rsatib keladi.

Fransuz tilida ravishlarni hosil qilishda sifatlarning tutgan o'rni kattadir. Ayniqsa holat kategoriyasini ifodalashda ravishlardan ya'ni sifat so'z turkumidan ravish yasalganini juda ko'p yozuvchilarning asarlarida shohida bo'lishimiz mumkin. Sifat so'z turkumidan ravish yasash uchun biz quyidagi usuldan foydalanamiz.

Bu usuldan foydalanishdan oldin sifat so'z turkumi haqida ozroq ma'lumotga ega bo'lib olaylik. Sifat deb, predmet, voqgea – hodisa yoki holatning belgi – xususiyatlarini ifodalaydigan so'zlarda aytiladi. Fransuz tilida sifatlari o'zbek tilidagidek predmetning rangi, hajmi, xarakteri, shakli, o'rni yoki vaqtda bo'lgan munosabati kabi belgilarni ifodalaydi. Sifatlarni biz yana o'zgaradigan (l'adjectif variable) va o'zgarmaydigan (l'adjectif invariable) kabi turlarga bo'lib

o'tamiz. Agar o'zgaradigan sifatlar to'g'risida gapiradigan bo'lsak ular jenskoy va mujskoy rodda bir biridan farqlanib turadi. Masalan:

cruel (m.r.), cruelle (j.r.)

doux (m.r.), douce (j.r.)

clair (m.r.) claire (j.r.)

O'zgarmaydigan sifatlar esa jenskoy va mujskoy rodda bir xil shaklga ega bo'ladi. Masalan: *simple (m.r., j.r.)*

brusque (m.r., j.r.)

avide (m.r., j.r.)

Sifatlarga - **ment** suffiksini qo'shish orqali biz holat ravishlarini hosil qilamiz. Agar sifatlarimiz jenskoy va mujskoy rodda bir xil shaklga ega bo'lib, ya'ni unli harf bilan tugasa unli harfdan so'ng - *ment* suffiksini qo'shamiz va holat ravishini hosil qilamiz. Masalan:

Les autres femmes, qui n'avaient pas osé intervenir, l'interrogèrent avidement (AZR.p 33).

Il demanda brusquement: "Pourquoi ça?" (BA. p 462).

"Alors" dit tranquillement Scott Kimmish, vous n'avez pas vu les villages des agresseurs, car ils portaient des masques (ZCJ. p49)

Il recommençait tout simplement sa vie vagabonde d'autrefois. (NC. p 39).

Agar sifatimiz mujskoy va jenskoy rodda har xil ko'rinishga ega bo'lsa yo unli yo undosh bilan tugasa biz uni jenskoy roddagi shaklini olib biz unga – *ment* suffiksini qo'shamiz va holat ravishini hosil qilamiz. Masalan:

Clair (m.r.), claire (j.r.), clairement.

Quand tu seras décide á exprimer ce que tu veux, tu le dira plus clairement. (AZB. p 25)

doux (m.r.), douce (j.r.), doucement.

Ils allaient devant eux doucement. (BA. p 407)

Fransuz frazeologiyasida holatni ifodalovchi FBlarning asosiy qismini ravishli FBlar tashkil etadi. Bunday FBlar fe'llar bilan qo'llanadi.

Fe'llar ham qanday harakat-holatni ifodalashiga ko'ra nutqiy faoliyat fe'llari, jismoniy faoliyat fe'llari, aqliy faoliyat fe'llari va holat fe'llari kabi ma'no guruhlarga ajraladi. Holatni ifodalovchi ravishli FBlar yuqoridagi fe'llarning har biri bilan qo'llana oladi. Misol uchun:

Je l'ai chassé pied à pied

Elle dègage son bras droit et lui envoie à toute volée un gifle qui arrive de plein fouet sur la joue gauche de son fils.

Bu yerda *pied à pied* va *à toute volée* iboralarini jismoniy harakat fe'llari *chasser* va *envoyer* bilan qo'llanilmoqda. Ularni o'zaro farqlash uchun quyidagi misollarga e'tibor qilaylik:

Nous reparlerons de tout cela à tête reposé.

Il répondit d'abondance de coeur aux questions empressées de Julien

A la troisième représentation, Magdeleine me dit avec abondance de coeur.

Bu yerda *à tête reposé*, *d'abondance de coeur*, *avec abondance de coeur* kabi birliklar nutqiy faoliyat fe'llari *reparler*, *répondre*, *dire* bilan ishlatilyapti .

Il pense à cela à vue de nez

Je l'ai connu à première vue.

Bu yerda *à vue de nez*, *à première vue* birliklari aqliy faoliyat fe'llari *penser* va *connaître* bilan qo'llanilmoqda.

Marcel et Jeanne restaient à l'abandon.

Bu yerda esa *à l'abandon* frazeologik birligi holat feli *rester* bilan qo'llanilmoqda.

Holatni ifodalovchi ravishli FBlarning ko'pchiligi jismoniy harakat fe'llari va nutqiy faoliyat fe'llari bilan qo'llanadi. Holatni ifodalovchi ravishli FBlarda sinonimiya hodisasi keng tarqalgan leksik hodisalardan bo'lib hisoblanadi. Holatni ifodalovchi ravishli FBlar bir-biri bilan sinonim bo'lib kelishi mumkin. Masalan:

De son accord - à volonté – o'z hohishi bilan;

D'abondance de coeur – en action – zavq – shavqqa to'lib;

Pas à pas – pied à pied – qadamba- qadam;

Avec abondance de coeur - à bannière levée- ochiqlik, samimiylilik bilan;

à la sourdine – en sous-main – bildirmasdan.

Bir soʻz ishtirokidagi turli strukturali FBlar ham oʻzaro sinonim boʻlib kelishi mumkin. Masalan:

De bon accord, d'un commun accord, en parfait accord –hamjihatlik , inoqlik bilan.

Ushbu boʻlimga xulosa oʻrnida shuni aytish mumkinki, fransuz frazeologiyasida holatni ifodalovchi FBlarning asosiy qismini ravishli FBlar tashkil etadi. Bunday FBlar feʼllar bilan qoʻllanadi. Ammo ular qanday feʼllar bilan qoʻllanilishiga koʻra bir biridan farq qiladi. Yana shunday FBlar ham borki ular feʼllarning barcha turlari bilan ham qoʻllanilish imkoniyatiga ega.

2.4. Feʼlli FBlarda “*holat*” kategoriyasi

Fransuz frazeologiyasida holat kategoriyasini ifodalovchi FBlarning yana bir turi feʼlli FBlar hisoblanadi. Bunday FBlarni semantik jihatdan tahlil qilganda ular oʻrtasida farq koʻzga tashlanadi. Xususan, bunday feʼlli FBlar ifodalayotgan semantik maʼnosiga koʻra ikki guruhga boʻlinishi mumkin. Yaʼni, sof holatni ifodalovchi va harakat orqali holatni ifodalovchi FBlar. Harakat orqali holatni ifodalovchi FBlarning oʻzi yana bir necha turlarga boʻlinadi: jismoniy harakat orqali holatni ifodalovchi, nutqiy faoliyat orqali holatni ifodalovchi, aqliy faoliyat orqali holatni ifodalovchi FBlar. Misol uchun, ularga quyidagi FBlarni keltirish mumkin:

Sof holatni ifodalovchi FBlar:

Être sous les armes – doim qurollanib yurmoq

Être enrhumé comme un loup- nihoyatda qattiq shamollamoq

Avoir l'estomac creux - oʻlgudek och boʻlmoq

Avoir du beurre dans ses épinards - toʻlib-toshib yashamoq (pichogʻi yogʻ ustida)

Odatda *être* va *avoir* feʼllari ishtirokidagi FBlar sof holatni ifodalaydi.

Harakat orqali holatni ifodalovchi FBlar:

Faire la bouche en cœur- samimiy kulmoq

Faire des yeux de basilic- nafrat ko'zi bilan qaramoq

Se crever de boire et de manger- bo'kib qolguncha yeb- ichmoq

Attendre qn comme le Messie – sabrsizlik bilan kutmoq

Yuqoridagi FBlar esa ham holatni, ham harakatni ifodalab kelmoqda. Bunday FBlarni qanday harakat holatni ifodalashiga ko'ra ham quyidagicha tahlil qilish mumkin. Misol uchun:

Jismoniy harakat orqali holatni ifodalovchi FBlar:

Faire des accolades – gajak qilib yozmoq

Travailler à bloc - bor kuchi bilan ishlamoq

Manger à son appétit –ishtaha bilan yemoq

Prendre un baton – majburan bajarmoq

Nutqiy faoliyat orqali holatni ifodalovchi FBlar:

Parler d'abondance de coeur- sevinib gapirmoq

Rendre bec pour bec-muloyimlikka muloyimlik bilan javob bermoq

Jaser comme une pie- ko'p gapirmoq

Bavarder comme une concierge-ko'p gapirmoq

Aqliy faoliyat orqali holatni ifodalovchi FBlar:

Savoir le court et le long d'un affaire- biror narsani ipidan ignasigacha bilmoq

Connaitre qch de A jusqu'à Z- biror narsani besh qo'liday bilmoq

Passer qch à l'alambic- biror narsani izchil o'rganmoq

Holat orqali holatni ifodalovchi FBlar:


Avoir le grelot- dag'-dag' titramoq

Prendre la bisque –o'ta zerikmoq

S'en aller comme une chandelle – asta - sekinlik bilan so'nmoq

Bular ichida holat orqali holatni ifodalovchi FBlar ozchilikni tashkil etadi.

Yuqoridagi holatni ifodalovchi fe'lli frazeologik birliklarni umumiy tarzda quyidagicha tasavvur etish mumkin:



Ushbu bo'limga xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki .Bunday FB-larni semantik jihatdan tahlil qilganda ular o'rtasida farq ko'zga tashlanadi. Xususan, bunday fe'lli FB-lar ifodalayotgan semantik ma'nosiga ko'ra ikki guruhga bo'linishi mumkin. Ya'ni, sof holatni ifodalovchi va harakat orqali holatni ifodalovchi FB-lar. Harakat orqali holatni ifodalovchi FB-larning o'zi yana bir necha turlarga bo'linadi: jismoniy harakat orqali holatni ifodalovchi, nutqiy faoliyat orqali holatni ifodalovchi, aqliy faoliyat orqali holatni ifodalovchi FB-lar. Bular ichida holat orqali holatni ifodalovchi FB-lar ozchilikni tashkil etadi.

II bobga xulosa

Biz fransuz tilidagi holat kategoriyasini ifodalovchi vositalar va ularning struktur –semantik xususiyatlarini tadqiq qilish jarayonida bir qancha kuzatishlar orqali Magistrlik dissertatsiyasimizning o'rganish obyekti hisoblangan holatni ifodalovchi so'zlarning turli-tuman xususiyatlarini namoyon etishga yordam beradigan quyidagi xulosalarga kelishimizga imkon tug'ildi:

1. Tadqiq qilinayotgan holat kategoriyali vositalar orasida frazeologik iboralar muhim o'rinni egallagani holda o'zlarida mustaqil va yordamchi so'zlar birikishining maxsus turini aks ettirishi orqali holat ma'nosini aks ettirish uchun xizmat qiladi. Bunda yordamchi va mustaqil so'zlardagi xususiy ma'nolarning u yoki bu darajadagi ma'no ko'chishi iboraga butun yangi ma'no baxsh etadi. Birikmalar tarkibi leksemalarning aniq uyg'unlashuvi bilan mustahkamlanganligiga qaramasdan, ulardan anglashilayotgan umumiy ma'no FBlar tarkibini tashkil etuvchi komponentlarning xususiy ma'nolaridan kelib chiqmaydi va ular tarkibidagi leksemalar bunday uyg'unlashuv jarayonida tarqalib ketmaydi. Tahlil qilinayotgan holatni ifodalovchi so'zlarning o'zi semantik jihatdan bir necha turlarga bo'linadi. Xususan, ularni semantik nuqtai nazardan tadqiq etish jarayonida ularga xos quyidagicha semantik turlarni ajratish mumkinligi namoyon bo'ldi: 1) shaxsning ruhiy holatini ifodalovchi, 2) shaxsning fizik holatini ifodalovchi, 3) faoliyat va harakat holatini ifodalovchi, 4) predmetning fizik holatini ifodalovchi so'zlar.

2. Fransuz tilida ravish so'z turkumiga xos so'zlar holatni ifodalovchi asosiy vositalardan biri sanaladi. Bu ravish so'z turkumi fe'lli birikmalarda amaliy belgining u yoki bu intensivlik darajasini amalga oshirishga imkon beradi. Bunday ravish so'z turkumi holat kategoriyasini ifodalashda harakatning intensivlik darajasini ifodalashning xolisona baholash va emosional-neytral vositasi sifatida namoyon bo'ladi.

3. Fransuz frazeologiyasida holatni ifodalovchi FBlarning asosiy qismini ravishli FBlar tashkil etadi. Bunday FBlar fe'llar bilan qo'llanadi. Ammo ular qanday fe'llar bilan qo'llanilishiga ko'ra bir biridan farq qiladi. Yana shunday FBlar ham borki ular fe'llarning barcha turlari bilan ham qo'llanilish imkoniyatiga ega.

4. Holatni ifodalovchi FBlarni semantik jihatdan tahlil qilganda ular o'rtasida farq ko'zga tashlanadi. Xususan, bunday fe'lli FBlar ifodalayotgan semantik ma'nosiga ko'ra ikki guruhga bo'linishi mumkin. Ya'ni, sof holatni ifodalovchi va harakat orqali holatni ifodalovchi FBlar. Harakat orqali holatni

ifodalovchi FBlarning o'zi yana bir necha turlarga bo'linadi: jismoniy harakat orqali holatni ifodalovchi, nutqiy faoliyat orqali holatni ifodalovchi, aqliy faoliyat orqali holatni ifodalovchi FBlar. Bular ichida holat orqali holatni ifodalovchi FBlar ozchilikni tashkil etadi.

III BOB

HOLATNI IFODALOVCHI FBLARNING STRUKTUR-GRAMMATIK XUSUSIYATLARI

3.1. “Holat” kategoriyasining sintaktik tavsifi

Har bir til grammatikasidagi kabi fransuz tili grammatikasida ham hol eng ko'p uchraydigan gapning ikkinchi darajali bo'lagidir va ular fe'l- kesim ifodalagan ish harakatning bajarilish xususiyatlarini aks ettiradi. Bu gap bo'lagi *quand?* – *qachon?*; *où?* – *qayerda ?*; *comment?* – *qanday?*; *de quelle façon?*, *de quelle manière ?* – *qay tarzda?*; *pourquoi?* – *nima uchun?*; *combien?* – *qancha miqdorda?* va shu kabi boshqa so'roqlarga javob bo'ladi. Ushbu so'roqlarga beriladigan javoblarga ko'ra holning quyidagi turlari tasnif qilinadi:

o'rin holi (complément circonstanciel de lieu) : Il réside à Lyon.

payt holi (complément circonstanciel de temps) : Le vent se leva vers le soir.

vaziyat holi (complément circonstanciel de manière) : Maintenant il peuvent marcher debout.

miqdor holi (complément circonstanciel de quantité) : Il a payé ce terrain une forte somme.

vosita holi (complément circonstanciel de moyen) : Il découpa la gravure avec des ciseaux.

sabab holi (complément circonstanciel de Cause) : Elle pleurait de joie.

maqsad holi (complément circonstanciel de but) : Elle travaille dans l'espoir de réussir.

zidlov holi (complément circonstanciel d'opposition) : Elle est sortie malgré la pluie.

Misollardan ko'rinib turibdiki, hol turli grammatik – vositali va vositasiz ko'rinishlarda ifodalanmoqda. Biz bu bo'limda holat kategoriyasini ifodalashning bir manbai hisolangan hol turlaridan aynan vaziyat holining ifodalanish vositalarini kengroq yoritmoqchimiz.

Fransuz tilida vaziyat holi *comment? - qanday?; de quelle façon?, de quelle manière ? - qay tarzda?* kabi so'roqlarga javob bo'lib, o'zi tegishli bo'lgan kesim aks ettirgan ish harakatning qay tarzda bajarilish xususiyatlarini namoyon qilishi orqali tildagi holatni ifodalovchi vositalar qatoridan o'rin oladi. Ular ham bunday kategoriyani ifodalashda o'ziga xos struktur-sintaktik va funksional xususiyatlarni aks ettiradi.¹ Gaplarda vaziyat holining ifodalanish vositalari quyidagilardan iborat:

Odatda holni ifodalovchi asosiy so'z turkumi - ravishdir. Bu holat biz yoritmoqchi bo'lgan vaziyat holi uchun ham xosdir. Ular oddiy va *-ment* suffiksi yordamida yasalgan ravishlar bilan amalga oshadi:

Vous marchez vite. Il écrit mal encore.

Il s'endormit tranquillement. Elle a répondu doucement.

Ravish vazifasida qo'llaniladigan ba'zi sifatlar bilan :

Elle chantait faux. Vous parlez très bas.

Bunday turdagi sifatlar ozchilikni tashkil etib, kam sonli fe'llar bilangina qo'llanadi.

Bundan tashqari vaziyat holi quyidagi formula asosida ham ifodalanishi mumkin: **turli predlog + otli birikmalar :**

à : Elle allait à grands pas.

de : Il regardait d'un air distrait .

en : Ils examinèrent la lettre en silence.

avec : Elle refusa avec mépris.

sans : Il le regarda sans colère.

Shuni esda tutish kerakki, “avec” va “sans” predloglari mavhum otlar bilan qo'llanilib, vaziyat holi vazifasida kelganda, artiklsiz ishlatiladi. Agar bu predloglardan keyin kelgan otlarning aniqlovchisi mavjud bo'lsa, ushbu otlar noaniq artikl bilan qo'llaniladi: *Peu à peu , avec une lenteur désespérante, le jour s'échappe du ciel.*

¹ Гак В.Г. Теоретическая грамматика французского языка. Синтаксис. –М.: ВШ, 1981. –С. 94.

“A” predlogidan keyin aniq artiklli otlar holat kategoriyasining ifoda vositalaridan biri bo’la oladi: *s’habiller à la hate , manger à la va-vite.*

Fe’ning o’zgarma shakli ravishdosh (gerundiy) ya’ni le Gérondif ning ham gapda holatni ifodalovchi so’zlar vazifasida kelishi ko’plab uchraydi:

Elle se tourna vers lui en souriant. Ils travaillaient tout en parlant.

Holat kategoriyasi hech qanday vositasiz, to’g’ridan – to’g’ri ham ifodalanishi mumkin: *Elle marchait la tête haute .*

Fe’ning shaxssiz shakllaridan Infinitif predloglar bilan holatni ifodalovchi so’z bo’lib kela oladi: *Il courait à perdre haleine. Elle sortit sans dire un mot.*

Participe passé va *participe présent* ishtirokidagi holatni ifodalovchi so’zlar ham fransuz tilida keng tarqalgan: *Levé tôt et couché tard , il passait ses journées en l’attendant.*

Predlog bilan bog’langan ot, sifat va ravishlarning ketma-ket qaytarilishidan tashkil topgan turg’un birikmalar ham holatni ifodalashi mumkin:

L’oiseau fait son nid petit à petit.

Travailler coude à coude, côte à côte.

Peu à peu, avec une lenteur, désespérante , le jour s’échappe du ciel.

Ravish o’rnida qo’llaniladigan aniqlovchili otli birikmalardan tashkil topgan ba’zi frazeologik birliklar holatni ifodalovchi vositalar vazifasida ishlatiladi: *recevoir à bras ouverts, parler à coeur ouvert, dormir à poings fermés.*

Yuqorida ko’rib chiqqan misollarimizdan ko’rinib turibdiki, ko’p holatlarda, vaziyat holi vergul bilan ajratilib, izohlovchi (*mis en apposition*) bo’lib keladi.

3.2. Predlog - “holat” kategoriyasining tarkibiy qismi sifatida

Fransuz tilida holat kategoriyasining ifodalanishida predloglarning o’rni beqiyos va katta ahamiyatga egadir. Fransuz tilida holat kategoriyasini ifodalashidagi predloglar haqida gapiradigan bo’lsak predloglarning ko’plab turlarini uchratishimiz mumkin:

Masalan, *de*, *à*, *sans*, *avec*, *en*, *dans*, *par* predloglari fransuz tilida holat kategoriyasini ifodalashda keng qo'llaniladi. Fikrimizning isboti sifatida quyidagi predloglarga misol keltirishimiz mumkin.

avec – *avec colère*, *avec douceur*, *avec malice*,

à – *au hazard*, *à voix basse*.

de - *d'une voix implorante*, *d'un air étonné*, *d'une voix énergique*.

Sans-*sans parler*, *sans fermer la porte*..

En- *en son âme et conscienc*, *en bon accord*

Dans-*dans sa coquille*, *dans sa barbe*.

Par- *par accès*, *par la gorge*, *par à-coups*.

Biz fransuz tilida holat kategoriyasini ifodalashda uchratayotgan predloglarni tahlil qilish natijasida ularning bir qancha morfologik xususiyatlarga ega ekanligiga guvoh bo'ldik.

Biz quyidagi fransuz tilida mavjud predloglarning fransuz tilida holat kategoriyasini ifodalashda qo'llanilish xususiyatiga yana bir bor to'xtalib o'tamiz.

Xususan fransuz tilidagi predloglarning fransuz tilida holat kategoriyasini ifodalashda ishtirok etishi nuqtai nazaridan tahlil qilganimizda *avec*, *de*, *à* predloglari eng ko'p tarqalgan ekanligi ma'lum bo'ladi.

Shulardan quyida “*de*” predlogi xususida to'xtalib o'tamiz.

Fransuz tilidagi “*de*” predlogi fransuz holat kategoriyasini ifodalashda keng tarzda qo'llaniladi. Misol uchun:

1) *Elle murmure, d'une voix implorante* (B A. page 453).

2) “- *Oui*”, dit Anne *d'une voix basse* (Z C. J page 45).

3) *Elle reprit, d'une voix holatante* (B A. page 436).

Yani bu holatda *de* predlogi undan keyin noaniq artiklimiz so'ngra ot va aniqlovchi kelayapti. Masalan, bu misollarimizdagi predlog, artikl va otdan keyin kelgan aniqlovchini o'zgartirsak bo'ladi. O'zgartirgan taqdirimizda ham holatni ifodalayotgan frazeologik birikmamiz o'z xususiyatini o'zgartirmaydi. Baribir bu frazeologik birikmamiz holatni ifodalayveradi. Yani quyidagi misollarni ham bunga misol qilib keltirishimiz mumkin.

“Les” deux bandits se regardèrent d’un air étonné.

“- J’ai trouvé” s’écria Anne d’une voix triomphante.

